

REFERENDUMDA FAOL ISHTIROK ETAYLIK!

MILLIY QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT



milliy tiklanish

1995-yil 10-iyundan chiqsa boshlagan

www.mt.uz / milliytiklanish2022@umail.uz

«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY GAZETASI

№ 9 (1197) 2023-yil 29-mart,
chorshanba

Adadi - 8657

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI
REFERENDUMI
2023

MILLIY TIKLAN
DEMOKRATIK PARTI

MAS'ULLIK SHAHODATI



O'ZBEKİSTON
RESPUBLİKASINING
KONSTITUTSIYASI

Keyingi yillarda
erishilgan
siyosiy-iqtisodiy
erkinliklarni
mustahkamlash
va rivojlantirish
uchun barqarorlikka
erishish,
islohotlarni ortga
qaytmaydigan
harakatga
aylantirish
xalqimiz uchun
ham, davlatimiz
uchun ham ustuvor
maqsadga aylandi.

REFERENDUM

OQ PAXTADAGI
«QORA DOG»
FOJIASI

takrorlanmasligi uchun
konstitutsiyaviy asos
yaratilmoqda

G'OYA VA
TASHABBUSLARIMIZ AKS
ETAYOTGAN HUJJAT!

Inson baxtli va farovon yashash
uchun dunyoga keladi. O'zi
tug'ilib o'sgan yurtda yashashdan
ham ortiqroq baxt bormi
dunyoda?!



4-5

AKS-SADO

TOKI, GAZETA O'QISH
QADRIYATGA AYLANMAS
EKAN,

tanqidlar sarg'aygan
sahifalarda qolib
ketaveradi...



UMRI QAMOQ, SURGUN, RUHIY VA MA'NAVİY TA'QİBLARDА O'TGAN SAHRO QIZI



12-bet

MAS'ULLIK



Alisher QODIROV,
Markaziy kengash raisi

Keyingi yillarda dunyo keskin burilishlar, turli ziddiyatlar, xavf-xatarlar, siyosiy inqirozlar va oldindan oqibatini taxmin qilish qiyin bo'lgan muammolar girdobida yashamoqda. Ana shunday qiyinchiliklar ichida O'zbekiston o'z manfaatlarini munosib himoya qilishi, mustaqil davlat sifatida o'z maqsadlarini ro'yobga chiqarishi uchun tub islohotlarni amalga oshirmoqda. Konstitutsiyamizga o'zgartirish kiritish zarurati ham aynan xalqimiz tomonidan keng qo'llab-quvvatlanayotgan siyosiy va iqtisodiy islohotlar to'lqinida yuzaga keldi.

Tan olish kerak, bugun Yangi O'zbekistonda Konstitutsiyaviy islohotlar orqali insonni qadrlaydigan davlat barpo etishning huquqiy asoslari yaratilmoqda. Bunday davlatni esa eng avvalo, o'zi va atrofidagilarni hurmat qila oladigan insonlarga yaratishi va rivojlantirishi mumkin.

Ma'lumki, Referendum bu fuqarolarning mamlakat miqyosidagi muhim masalalarga ovoz berish yo'li bilan munosabat bildirishidir. Aytish joizki, Bosh Qomusimizga kiritilgan o'zgarishlarning qariyb bir yil davomida muhokama etilib, so'ngra Referendumga qo'yilayotgani Konstitutsiyamizning nafaqat yangilangani, balki xalqchillashishiga xizmat qildi. Ana shu jarayonda yurtdoshlarimizdan 220 mingdan ziyod takliflar kelib tushgani esa ularning Vatanimiz taqdiriga befarq emasliklaridan dalolatdir.

Biron davlatda bir yildan ziyodroq vaqt mobaynida muhokama qilingan Konstitutsiya yo'qligini inobatga olsak, bu jarayonni tom ma'noda tarixiy hodisa deb atash mumkin bo'ladi.

Konstitutsiya da q i moddalarning 128 tadan 155 taga, normalarning esa 275 tadan 434 taga ko'paygani Bosh Qomusimizning 65 foiz matni yangilanganini ko'ssatadi.

Keyingi yillarda erishigan siyosiy-iqtisodiy erkinliklarni mustahkamlash va rivojlantirish uchun barcha orlikka erishish, islohotlarni ortga qaytmaydigan harakatga aylantirish xalqimiz uchun ham, davlatimiz uchun ham ustuvor maqsadga aylandi.

Inson huquq va erkinliklari,

qadriyatlar, madaniy-tarixiy va ma'nnaviy meros, tarbiya va ta'lif sohasida davlat zimmasiga jiddiy mas'uliyat yuklatilayotgani

qadriyatlarimiz asosida boyitish imkonini berdi.

Ma'lumki, tarbiya xalqimiz uchun qiyosi yo'q qadriyat sanaladi. Aynan shuning uchun ham Konstitutsiyada yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ma'haviy merosimizga hurmat hamda ona Vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantirish mas'uliyat davlat zimmasiga yaratilmoqda.

Partiyamizning 2020 – 2024-yillarga mo'ljallangan Saylovoldi dasturida belgilangan asosiy vazifalarning qonunchilik talablari asosida yangilanayotgan Konstitutsiyada aks etayotgani, albatta, bizni quvontirdi. Jumladan, 50-moddaga maktabgacha ta'lif va tarbiya, umumiy o'rta ta'lif davlat nazoratidadir, degan norma kiritildi. Avvalgi Konstitutsiyada faqat maktab ishlari davlat nazoratida, deyilgan edi.

Bu o'zgarish, shubhasiz yosh avlod vakillarining bog'cha va maktab davri davlatning kafolatli nazoratida bo'lishini anglatadi. Sir emaski, oila, bog'cha va maktabda tarbiya va ta'lif masalasidagi qarash va amal uyg'unligi ta'minlansa, aqlli, erkin tafakkurli, o'ziga va atrofiga mas'uliyatli bo'lgan yangi avlodni shakllantirish muddati uzoqqa cho'zilmaydi.

Albatta, maktabgacha tarbiya tizimini isloh qilmasdan turib, bu mas'uliyatni zimmaga olish mumkin emas. O'tgan olti yil mobaynida maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalar qamrovi 10 foizdan qariyb 80 foizga yetdi, hududlarda minglab yangi bog'chalar qurildi, soha oyoqqa turdi va endi bog'chani ham maktabdagidek davlat qaramog'i olish

“

Bugun Yangi O'zbekistonda Konstitutsiyaviy islohotlar orqali insonni qadrlaydigan davlat barpo etishning huquqiy asoslari yaratishi va rivojlantirishi mumkin.

yangi Konstitutsiyaning xalq Konstitutsiyasiga aylanayotganidan dalolatdir.

Ta'kidlash lozimki, uch ming yillik davlatchilik tajribamiz, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat, ajoddolarimizning jahon sivilizatsiyasidagi o'rniiga alohida e'tibor, oila, tarbiya va ta'lif, madaniy va tarixiy merosga munosabatni belgilovchi yangi normalar Konstitutsiyani milliy

SHAHODATI

konstitutsiyaviy norma bilan belgilanmoqda. Statistikaga qiziquvchilar uchun shuni aytish joizki, yangilanayotgan Konstitutsiyamizda ta'limgartibya va ilm-fanga oid normalar qariyb 2 barobarga oshmoqda.

hisobiga falsafa (PhD) va fan doktorlaridan (DSc) iborat pedagoglar sonini ikki barobarga yetkazishga ko'maklashish hamda sohani jahon ta'l'im va ilmiy hamjamiyatiga integratsiyalashish, olyi

kelgan majburiy mehnatga bo'lgan yangicha munosabatni mustahkamlaydi.

Yana bir muhim gap: Bosh Qomusimizga davlatning xorijda yashayotgan vatandoshlarimiz bilan aloqalarimiz saqlanib qolishi

Konstitutsiyada ana shu e'tibor ham huquqiy jihatdan kuchaytirilyapti. Ya'nini, yangi norma bilan ayollarning ish haqini kamaytirish taqiqlanmoqda.

Ushbu masala ham partiymiz uchun begona emas. Buni 2020–2024-yillarga mo'ljallangan Saylovoldi dasturimizda fuqarolarga, ayniqsa, xotin-qizlarga to'liq ish xaqi saqlangan holda moslashuvchan ish vaqtini oralig'ini belgilashni joriy etish, ayollarning oilada ko'proq bo'lishlari uchun sharoit yaratishga erishish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilanidan ham ko'rish mumkin edi.

Konstitutsiya ga

munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi bilan bog'liq normadir. Bujuda katta kafolat bo'lib, O'zbekistonimizning ijtimoiy va siyosiy hayotidagi tarixiy voqeasi hisoblanadi.

Aytaylik soliq qonunchiligidagi bir biriga nomuvofiq bo'lgan normalar vujudga keldi. Bunday nomuvofiqlikni, tabiiyki, soliq organi davlat foydasiga, fuqaro esa o'z foydasiga talqin qilishni xohlaydi. Konstitutsiyaga kiritilayotgan mazkur kafolat esa, bunday bahsiga nuqta qo'yadi va nomuvofiqliklar davlatga emas, fuqaro, ya'nisi sizu bizning foydamizga hal etiladi.

Umuman olganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda inson huquq va erkinliklari o'ldirdi. Davlatning xalq oldidagi majburiyatlar bir necha baravarga oshmoqda. Chunki Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishda "inson manfaati har narsadan ustun" degan mezon asos qilib olinidiki, bu bilan Bosh Qomusimiz tom ma'noda xalq Konstitutsiyaga aylanmoqda.

M a'lumki, ja hon tajribasida referendumga chiqariladigan mavzu har doim ham referendumgacha xalq bilan muhokama qilinmaydi. O'zbekistonidagi konstitutsiyaviy islohotlarning o'ziga xosligi esa yangi Konstitutsiya loyihasining xalqimiz bilan uzoq muhokama qilingani va deyarli birga tayorlangani bo'ldi. Shuning uchun barchani xalqimiz taqdiri va ertangi kunini belgilab beradigan tarixiy o'zgarishlarga befarq bo'limasdan, referendumda faol ishtirok etishga chaqirib qolamiz!

„ Ta'kidlash joizki, oldimizda mashaqqat bilan erishilayotgan natijalar mohiyatini angelaydigan avlodni tarbiyalash vazifasi turibdi. Shuning uchun ham bugun yoshlarga qaratilayotgan e'tibordan umidimiz katta, ya'nini mehr bilan parvarishlanayotgan nihollar ertaga xalqimizni barakali hosil bilan quvontirishi kerak!

Saylovoldi dasturimizda belgilangan yana bir muhim vazifa – loyihaning 52-moddasiga o'qituvchining sha'ni va qadr-qimmatini, ularni ijtimoiy va moddiy farovonligini himoya qilish to'g'risida norma kiritilayotganidir. Bu mamlakatimizdag'i 685 ming nafardan ortiq o'qituvchining professional o'sishi hamda ijtimoiy va moddiy qo'llab-quvvatlanishi ularning jamiyatdagi ijtimoiy maqomi, obro'sini yanada oshirishga xizmat qiladi, albatta.

Konstitutsiyada oliy ta'lim tashkilotlariga akademik erkinlik berish, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqi ham kafolatlanmoqda. Ushbu normaning kiritilishi oliy o'quv yurti va ilmiy-tadqiqot muassasalarining ta'lim va ilmiy-tadqiqot jarayoniga davlat ishtirokini cheklashga, professor-o'qituvchilar va talabalarning o'quv jarayonidagi mustaqilligini ta'minlaydi.

Qomusimizda bolalar menehinating har qanday shakllari taqiqlanayotganini ham aytish joiz. Zero, keyingi 6 yilda olib borilgan ishlarning huquqiy asosini yaratish O'zbekistonda uzoq yillarda yurtimizning xalqaro imijiga salbiy ta'sir qilib

ta'lim muassasalarida ixtisoslashgan mutaxassislar tayyorlashni kengaytirish borasidagi masalalar belgilab olingandi.

Konstitutsiyada oliy ta'lim tashkilotlariga akademik erkinlik berish, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqi ham kafolatlanmoqda. Bu norma chet ellarda yashayotgan, ishlayotgan, eng asosiyi ta'lim olayotgan yurdoshlarimizni o'z ona Vatani bilan doimiy aloqada bo'lishga, tili, madaniyatini saqlab qolish hamda rivojlantirishga, O'zbekistonning obro'sini esa yanada oshirishga xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, bugun oldimizda mashaqqat bilan erishilayotgan natijalar mohiyatini anglaydigan avlodni tarbiyalash vazifasi turibdi. Shuning uchun ham bugun yoshlarga qaratilayotgan e'tibordan umidimiz katta, ya'nini mehr bilan parvarishlanayotgan nihollar ertaga xalqimizni barakali hosil bilan quvontirishi kerak!

Oila va ota-onalarga e'tibor shubhasiz, kelajakka e'tibordir. Yangilanayotgan

„

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda inson huquq va erkinliklari o'ldirdi. Davlatning xalq oldidagi majburiyatlar bir necha baravarga oshmoqda. Chunki Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishda "inson manfaati har narsadan ustun" degan mezon asos qilib olinidiki, bu bilan Bosh Qomusimiz tom ma'noda xalq Konstitutsiyaga aylanmoqda.

Kiritilayotgan muhim o'zgartirishlardan yana biri bu, shubhasiz insonning davlat organlari bilan o'zaro

KONSTITUTSIYADAGI MODDALARNING

128 tadan 155 taga, normalarning esa 275 tadan 434 taga ko'paygani Bosh Qomusimizning 65 foiz matni yangilanganini ko'rsatadi.

52

-modda.

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Davlat o'qituvchilarining sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

“

2016-yildan boshlangan – Yangi O'zbekiston islohotlari tufayli majburiy mehnatni batamom tugatish davlat siyosatining eng ustuvor vazifalaridan biri etib belgilandi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
REFERENDUMI
2023

OQ PAXTADAGI «QORA DOG» FOJIASI TAKRORLANMASLIGI UCHUN KONSTITUTSIYAVIY ASOS YARATILMOQDA

Xalqaro mehnat tashkiloti ma'lumotiga ko'rta, 2021-yilli duniyoda 28 million kishi majburiy mehnat qurbaniga aylangan. Ularning 11 millioni ayollar, 4 millionga yaqini esa bolalardir.

Garchi BMTning Majburiy mehnat to'g'risidagi 29-Konvensiyasi 1930-yilda, uning qo'shimcha bayon-nomasi 2014-yilda tasdiqlangan bo'lsada, majburiy mehnati yo'qotish hamon xalqaro hamjamiyat oldidagi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Uzoqqa bormaylikda, bundan bir necha yil oldingi vaziyatni esga olaylik. Yaqin yillargacha bizda ham o'qituvchilar, shifokorlar, umuman, ijtimoiy soha xodimlari, harbiyalar, talabalar, eng ayanchlisi, maktab o'quvchilarining majburiy mehnatiga, ayniqsa, paxta yig'im-terimiga jalb etilishi oddiy hol edi.

Aynan shuning uchun ham uzoq yillar oq paxtamiz jahon hamjamiyati oldida biz uchun «qora dog» bo'lib keldi. Vaziyat shu darajaga bordiki, mamlakatimizdagi va xorijdagi inson huquqlari faollari O'zbekistonda paxta yetishtirishda majburiy

banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Yevropa Ittifoqi va paxta eksporti hamda to'qimachilik sohasida faoliyat ko'ssatayotgan yirik kompaniyalarga taqdim etildi. Natijada 2010-yildan boshlab «Cotton Campaign» xalqaro koalitsiyasi o'zbek paxtasiga boykot e'lon qilib, uni soitib olishdan voz kechdi.

Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi: pedagog, tibbiyot xodimlari, talaba va o'quvchilarni paxta yoki boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarini yig'ib-terib olish, yoki obodonlashtirish ishlariqa, navbatchilikka majburiy jalb etish orqali biz nimalarga erishdik? Hech narsaga. Faqat yo'qotdik, xolos. O'quvchi va talabalarni savodsiz qildik. Jamiat taraqqiyotiga mas'ul o'qituvchiyu, aholi salomatligi va millat genofondiga mas'ul sog'liqi saqlash xodimlarini hasharchiga aylantirdik.

Bu nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy ahvolimizga, balki millat rivojидаги eng muhim yillarni yo'qotishimizga sabab bo'ldi. Ming shukurki, 2016-yildan boshlangan – Yangi O'zbekiston islohotlari tufayli majburiy mehnatni batamom tugatish davlat siyosatining eng ustuvor vazifalaridan bira

banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Yevropa Ittifoqi va paxta eksporti hamda to'qimachilik sohasida faoliyat ko'ssatayotgan yirik kompaniyalarga taqdim etildi. Natijada 2010-yildan boshlab «Cotton Campaign» xalqaro koalitsiyasi o'zbek paxtasiga boykot e'lon qilib, uni soitib olishdan voz kechdi.

Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi: pedagog, tibbiyot xodimlari, talaba va o'quvchilarni paxta yoki boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarini yig'ib-terib olish, yoki obodonlashtirish ishlariqa, navbatchilikka majburiy jalb etish orqali biz nimalarga erishdik? Hech narsaga. Faqat yo'qotdik, xolos. O'quvchi va talabalarni savodsiz qildik. Jamiat taraqqiyotiga mas'ul o'qituvchiyu, aholi salomatligi va millat genofondiga mas'ul sog'liqi saqlash xodimlarini hasharchiga aylantirdik.

Bu nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy ahvolimizga, balki millat rivojидаги eng muhim yillarni yo'qotishimizga sabab bo'ldi. Ming shukurki, 2016-yildan boshlangan – Yangi O'zbekiston islohotlari tufayli majburiy mehnatni batamom tugatish davlat siyosatining eng ustuvor vazifalaridan bira

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya

Sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijo etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi.

Bolalar mehnatining bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniyo rivojanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta'lif olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi.

44

-modda.

qo'yilyapti.

Konstitutsiyamizga kiritilayotgan o'zgarishlardan yana bira bu aynan majburiy mehnat, xususan, bolalar majburiy mehnatiga to'liq barham berilishi bilan bog'liqdir. Endi 44-moddaga ko'rta, «Sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijo etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi».

O'zbekistonning eng katta boyligi — farzandlarimizdir. Yuqorida qayd etilgan konstitutsiyaviy norma esa bolalarning sog'lig'i, xavfsizligi, to'liq jismoniyo, aqliy va ma'naviy rivojanishiga tahdid solmaydigan, ta'lif olish jarayonini buzmaydigan tarzda mehnat qilishiga to'sqinlik qilmaydi.

Majburiy va bolalar mehnatining taqiqlanishi Bosh Qomusimizda belgilab qo'yilayotgani esa ushbu siyosiy qaror abadiy ekanini ko'r-satadi. Bu borada, ayniqsa, barkamol avlod rivojiga salbiy ta'sir qiladigan ishlariда ota-onasiga yordam berish imkoniyati saqlab qolindagi.

Yana bir muhim fikr: aprel oyida kuchga kiradigan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada muhr lab

kodeksiga muvofiq, mehnatga tayyorlash uchun umumta'lum maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarining o'quvchilarini ularning sog'lig'i, xavfsizligi, to'liq jismoniyo, aqliy va ma'naviy rivojanishiga tahdid solmaydigan, ta'lif olish jarayonini buzmaydigan yengil ishni o'qishda bo'sh vaqtida bajarishi uchun ular o'n besh yoshga to'lganidan keyin ota-onasidan birining yoki ota-onasining o'rnni bosuvchi shaxslardan birining yozma roziligi bilan ishga qabul qilishiga yo'l qo'yiladigan bo'di.

Birso'z bilan aytganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning har bir normasi barcha aholi qatlamlari manfaatlarini inobatga oлган, jamiyatimizni Yangi O'zbekistonni qurish g'oyasi atrofida birlashtiradigan, mukammal huquqiy asosga aylanyapti.

Nodir TILAVOLDIYEV,
Oly Majlis Qonunchilik
palasati deputati,
«Yangi O'zbekiston»
gazetasining 2023-yil
25-mart sonidan olindi.

2022-YILNING 10-MART KUNI NIHOYAT «COTTON CAMPAIGN» KOALITSIYASI O'ZBEKİSTONGA

nisbatan joriy etilgan 12 yillik boykotni bekor qildi.

mehnat, ayniqsa, bolalar mehnatidan foydalanimagan sababli o'zbek paxtasiga boykot e'lon qilish bo'yicha petitsiyaga imzo chekdiradi.

Ushbu petitsiya BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi, Xalqaro mehnat tashkiloti, YUNISEF, Juhon

etib belgilandi.

Bolalarning o'qishda, shifokor va o'qituvchilarning ishda bo'lishi to'g'ri qaror edi. Majburiy mehnatga chek qo'yilishi har bir o'zbekistonlikning kundalik hayotiga ijobji ta'sir ko'rsatdi, albatta.



Hademay aholimiz 50 milliondan ham oshadi. Bas, shunday ekan, barqaror iqtisodiyot, xavfsiz davlat, samarali boshqaruv, ijtimoiy kafolatlarsiz uzoqqa borib bo'lmaydi. Maqsadlarimizga eltuvchi eng yaqin yo'l esa bu xalqimiz tafakkurining oly namunasi bo'lgan yangilanayotgan Konstitutsiyaga ovoz berish yo'lidir.

G'OYA VA TASHABBUSLARIMIZ AKS ETAYOTGAN HUJJATI

Inson baxtli va farovon yashash uchun dunyoga keladi. O'zi tug'ilib o'sgan yurda yashashdan ham ortiqroq baxt bormi dunyoda?

Ertagamas, bugun yaxshi yashashimiz uchun shart-sharoitlar yaratilayotgani, sa'y-harakatlar bo'layotgani rost. Zero, kechagina ko'pchiligimiz ishlab topgan halol luqmamizning oz emas, ko'p emas naqd 30 foizidan kechib yashashga rozi bo'lganimiz bugun xuddi o'tmishdan ertaklarga o'xshaydi. Tahillarga ko'ra, hademay aholimiz 50 milliondan ham oshadi. Bas, shunday ekan, barqaror iqtisodiyot, xavfsiz davlat, samarali boshqaruv, ijtimoiy kafolatlarsiz uzoqqa borib bo'lmaydi. Maqsadlarimizga eltuvchi eng yaqin yo'l esa bu xalqimiz tafakkurining oly namunasi bo'lgan yangilanayotgan Konstitutsiyaga ovoz berish yo'lidir. Xayriyat, kechagina saylovlarida saylovchining bizni mulzam qilgan ko'plab savollariga bugun aniq va

lo'nda javoblarimiz paydo bo'ldi. Ishsizlikdan himoyalash, uy-joyli bo'lish, adolatlari haq olish huquqi bilan birga "Milliy tiklanish"chilar takifi bo'lgan insonni va jamiyatni o'zgartirishga qaratilgan bir qator g'oysalar 65 foizga yangilangan oly yuridik hujjatda o'z aksini topdi. Demak,

Oila farovonligi uchun! Ayol qadri yanada yuksalishi uchun!

Farzandlar kamoli uchun! Sifati ta'lim va tarbiya uchun! Ijad va so'z erkinligi uchun!

Uzoqdag'i yaqinlarimiz - vatandoshlarimizning omonligi uchun!

Oramizza aybsiz aybdorlar bo'lmashligi uchun!

O'qituvchini otadek ulug'ligi kafolatlanayotgan Qonun uchun ovoz beramiz! "Ha" degan javobimizdan esa Yangi O'zbekistonning umidi katta ekanini unutmaylik!

**Feruza MUHAMMEDANOVA,
partiya Markaziy kengash
raisi o'rinnbosari**

Yangi tahrirdagi
Konstitutsiya

*Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir
hamda u jamiyat va davlat
muhofazasidadir.*

*Nikoh O'zbekiston xalqining
an'anaviy oilaviy qadriyatlariga,
nikohlanuvchilarining ixtiyoriy
roziligidiga va teng huquqliligidiga
asoslanadi.*

*Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi
uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va
boshqa shart-sharoitlar yaratadi.*

-modda.

76

KONSTITUTSIYA LOYIHASINI QO'LLAB-QUVVATLASH ZARURATI

Yangi tahrirdagi
Konstitutsiya

**O'zbekiston Respublikasi
o'zining milliy-davlat
va ma'muriy-hududiy
tuzilishini, davlat
hokimiyyati organlarining
tizimini belgilaydi, ichki va
tashqi siyosatini amalga
oshiradi. O'zbekistonning
davlat chegarasi va
hududi daxlsiz va
bo'linmasdir.**

3

-modda.

Bugun hamma Konstitutsiya, referendum haqida gapirmoqda. Ommaviy axborot vositalarida ham bosh mavzu – Konstitutsiya. Bu bejiz emas, albatta. Hatto yangilanayotgan Konstitutsiya muqaddamidasidagi "milliy va umuminsoniy qadriyatlar" so'zlarini ko'pchilik e'tiborini tortmoqda. Amaldagi Konstitutsiyamizda bu so'zlar yo'q edimi, o'zinga o'zim savol beraman. Qaradim, ha-a, bu so'zlar qo'shilayotgan ekan. Dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari, xalqlarning, millatlarning o'z davlatchiligidini, milliy o'zligini saqlab qolishga qaratilgan sa'y-harakatlarda Konstitutsiyaga kiritilayotgan bu so'zlarning o'rnini va ahamiyati beqiyos ekanini his etish oddiy bir fuqaro sifatining ham qalbimdagi so'zlardek tuyildi.

Davlatchiligidimiz rivojining uch ming yillikdan ziyod tarixiy tajribasi, buyuk ajodolarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosiga tavanish bilan bog'liq jumlalar ham "oqqan daryo oqaveradi", "eski o'zanlar esdan

chiqmas" degan jummalarni eslatdi.

Albatta, biz shundoq ham xalqimizning tarixiy tajribasiga suyanamiz, ajodolar merosiga tayanamiz. Ta'kidlash lozimki, ularning Bosh Qomusuda mustahkamlab qo'yilayotgani o'zligimizni anglash, saqlash va kelajak avlodlarga yetkazishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, u bizni yo'chi yulduz kabi yo'naltirib turadi.

Shu yerda yana bir narsa e'tiborimni tortdi. O'zbekistonning qo'shnilar bilan bo'ladigan aloqalarining Konstitutsiya darajasiga olib chiqilishi bu alohida yondashuv deb o'ylayman. Boshqa biror bir mamlakat Konstitutsiyasida shunday so'zlar borligini bilmayman. "Qo'shning tinch – sen tinch"...

Bu, shubhasiz, xalqimizning azaliy qadriyatidir. Yakunda shuni aytish joizki, asrlar osha sayqallanish kelayotgan qadriyatlarni Bosh Qomusimizda o'z aksini topayotgani ertangi kunga bo'lgan ishonchni orttiradi.



**O'rol HAYITOVA,
partiya Markaziy
kengashi xodimi**



Shubhasizki, inson qadri odob-axloq ustuvor bo'lgan jamiyatda ulug'lanadi. Ta'kidlash lozimki, amaldagi Konstitutsiyamizda odob, axloq so'zi ishlatalmagan bo'lsada, ular Fuqarolik kodeksi va boshqa qonunlarimizda o'z aksini topgan. Axloq bilan bog'liq normalar inson huquqlariga bag'ishlangan xalqaro hujjatlarda, aksariyat mamlakatlarning Konstitutsiyalarida ham o'z aksini topgan.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, referendumda xalqimiz hukmiga havola etilgan yangi Konstitutsiyada ajoddolarimiz azaldan e'tibor qaratib keladigan axloqiy fazilatlar ham e'tiborga olingani muhim ahamiyatga egadir. Jumladan, 21, 33 va 71-moddalarga ijtimoiy axloq, 44 va 79-moddalarga esa axloq masalalari bilan bog'liq normalar kiritilmoqda.

Dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari avj olayotgan shu kunlarda "ommaviy madaniyat" kabi xalqimiz hayot tarziga to'g'ri kelmaydigan

axloqsizliklardan himoya qilishda axloqiy mezonlarning Konstitutsiya darajasiga olib chiqilayotgani shu ma'noda ham eng to'g'ri qaror bo'di. Bu bizga odob-axloq me'yorlarini har kuni, har damda eslatib turadi, doimo sergaklikka undaydi. Negaki, bu masalalar mavsumiy yoki esga tushganda shug'ullanadigan ishlar emas, odob-axloq har kuni, har damda kerak.

Zero, har bir ota-onha farzandini tarbiyal, odobli, axloqli bo'lishini istaydi. Orif bolalarni tarbiyalab voyaga yetkazish uchun tinib-tinchimaydi, baxtini, iqbolini ko'rish uchun yashaydi.

Yangilanayotgan Konstitutsiya esa xalqimizning ana shunday orzumidalarini o'zida mujassamlashtiriyapti. Zotan, odob-axloq ustuvor bo'lgan jamiyatdagina inson o'z orzu umidurlariga yetishadi.

Akmal JUMABAYEV,
partiya Markaziy kengashi
devoni rahbari

Yangi tahrirdagi
Konstitutsiya

Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirot etishini rag'batlantiradi. Davlat yoshlarning intellektual, ijodi, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

-modda.

79

O'ZGARISHLARGA BEFARQ BO'LISHGA HAQQIMIZ YO'Q!

Tan olaylik, so'nggi olti yilda barcha sohalarida muhim o'zgarishlar amalga oshirilib, xalq davlat idoralariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qila boshladi. Inson qadrini ulug'lash, huquq va manfaatlarini himoya qilish, odamlarning ertaga emas, bugun ham yaxshi yashashi uchun munosib sharoitlar yaratish davlat siyosatiga aylandi.

Shu ma'noda ham konstitutsiyaviy islohotlarga yurtimizning oddiy bir fuqarosi sifatida befarq emasligimni aytmochiman.

Ma'lumki, Konstitutsiya loyihasi xalq muhokamasiqa qo'yilganidan keyin 220 mingdan ortiq taklif va mulohazalar kelib tushdi. Ular asosida esa loyihadagi moddalar soni amaldagi 128 tadan 155 taga, normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi. Asosiy Qonun matni qariyb 65 foizga o'zgargani aytilyapti. Bu esa yangilanayotgan Konstitutsiyada jamiyatimizning hech bir qatlami manfaati e'tibordan chetda qolmayotganini anglatadi. Bu xalqimizning Yangi O'zbekistonni qurish g'oyasi atrofida jipslashgani, birlashganidan dalolatdir. Shu jihatdan yangilanayotgan Bosh Qomusimizni Xalq Konstitutsiyasi deb aysak xato bo'lmaydi.

SAN'AT VA MADANIYAT VAKILLARI OLDIDAGI QARZ UZILADIGAN BO'LDI

Yangilanayotgan Konstitutsiyada san'at va madaniyat sohasi vakillarining xalqimizning tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylash, ularning davlat tomonidan muhofaza qilinishiga oid fikrlarimiz inobatga olingani quvonarli hol, albatta.

Zero, Saylovoldi dasturimizda ham aynan mana shu yo'nalishni rivojlantrish bo'yicha davlat majburiyatları Konstitutsiyaviy norma sifatida belgilab qo'yilishi maqsad qilib qo'yilgan edi.

Shu jihatdan, partiyadan saylangan deputat hamda madaniyat sohasi vakili sifatida yangilanayotgan Konstitutsiyamizni qo'llab-quvvatlash tarafidormon. Zero, kelajagimizni belgilab beruvchi ushbu 'hujjat loyihasini tayyorlashda barcha fuqarolarimiz birdekk ishtirot etdilar hamda aholining aksariyat takliflari Bosh Qomusimizda o'z aksini topdi.



Vasila FAYZIYEVA,
O'zbekiston Davlat san'at
muzeyi direktori

Yangi tahrirdagi
Konstitutsiya

61

Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart. Tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

-modda.

Ko'p uchraydigan 20 turdag'i kasalliklar bo'yicha birlamchi bo'g'indagi bepul analiz turlari – 15 tadan 25 tagacha, tekshiruvlar – 10 tadan 20 tagacha, dorilar – 64 tadan 90 taga oshiriladi.

OTADEK ULUG'LAR TOIFASI KONSTITUTSIYAVIY MAQOMGA EGA BO'LMOQDA



Venera QALENOVA,
Qoraqalpog'iston
Respublikasi Jo'qorg'i
Kengesi deputati

Ta'lrim sohasi vakili sifatida Konstitutsiyaga kiritilayotgan o'zgarishlar, xususan, davlatning o'qituvchilar sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishiga g'amxo'rlik qilish majburiyatini kuchaytirish to'g'risidagi normalar kiritilganini to'liq qo'llab-quvvatlayman.

Yillar davomida o'qituvchilarini majburiy mehnatga jalb etish, ularga ortiqcha yuqlamalar belgilangan oqibatida ta'lrim va tarbiya bir chetda qolib ketgani hech kimga sir emas. Ming bora shukrlar bo'sinki, bugun bunday ishlarga barham berildi.

BU UCHINCHI RENESSANS SARI HUQUQIY QADAMDIR

Davlatning ertangi kuni – yoshlarning qay darajada bilimli, ma'naviyatli va ma'rifatli bo'lishi bilan bevosita bog'liq. Shuning uchun ham bosh Qomusimizda ta'lrim va tarbiyaga birlamchi vazifa sifatida qaralmoqda. Ya'ni, yangilanayotgan Konstitutsiyada ta'lrim olish huquqi va imkoniyati yanada kengaytirilmoqda.

Jumla, Konstitutsiyamizning 50-moddasida maktabgacha ta'lrim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir, degan norma kiritilyapti. Avvalgi Konstitutsiyaviy normada faqat maktab ishlari davlat nazoratida, deyilgan edi.

Taraqqiyotimizni belgilaydigan muhim hujjatda yoshlarning olyi ta'lim muassasalarida davlat granti hisobidan o'qish huquqi ham qat'iy belgilab qo'yilayotganini aytish joiz. 2017-yilgacha oliygochlarda o'qish uchun davlat grantlari soni faqat



Otabek JIYANBAYEV,
partiyaning Toshkent
shahar Kengashi raisi


qisqargan bo'lsa, oxirgi olti yilda aksincha, ijobji tomoniga o'zgardi. Grantlar soni 2 baravar ko'payib, 40 mingtaga yetdi. Magistratura uchun esa 5 baravar ko'paydi.

Albatta, bu o'zgarishlar Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsad sari tashlangan navbatdagi muhim qadamdir.

Yangi tahrirdagi
Konstitutsiya

Fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan olyi ma'lumot olishga haqli. Olyi ta'lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga ega.
-modda.

51



G'OYA QO'RG'ONTEPADA HAM, XO'JAOBODDA HAM QO'LLAB-QUVVATLANYAPTI. AMMO...

Inson qadrini ulug'lash g'oyasi asosida Bosh Qonunimiz o'zgarayotgani yaxshi, albatta. Ammo bu o'zgarishlar mazmun-mohiyatini avvalo o'zimiz tushunib olib, qo'llab-quvvatlasakkina ezgu maqsadlarimizga erishamiz.

Vodiying aholisi eng zich bo'lgan Andijonda nafaqat sharoitlar, fuqarolarning dunyoqarashlari ham o'zgaryapti. Ular avvalgidek tortinchoq, "xo'p-xo'p"chi emas...

Bu holat Oliy Majlis Qonunchilik palasati deputatlari bilan uchrashuvlarda yaqqol sezilmoga.

Kuni kecha "Milliy tiklanish" fraksiyasi a'zolari Tursunoy Murotova Qo'rg'ontepada tumanida, Jahongir Abdurasulov Asaka, Farhod Ashmatov Shahrixonda, Baxtiyor Maniyazov esa Xo'jaobod tumanida o'z saylovchilari bilan uchrashdilar.

– Bugun dunyoda kuzatilayotgan o'zgarishlar asnosida jonjon Vatanimiz ham o'zgaryapti, – dedi Tursunoy Murotova. – Bu o'zgarishlar mavsumiy bo'lib qolmasligi uchun Konstitutsiyaviy islohotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga "inson – jamiyat – davlat" degan g'oya singdirilmoqda, inson manfaati har narsadan ustun qo'yilyapti.

J. Abdurasulov esa Konstitutsiyaga yoshlar bilan bog'liq alohida bob

kiritilayotganini ta'kidlab, kelajagimiz egalarining ta'lim olishi, ijtimoiy va tibbiy himoyasi, uy-joyli bo'lishi, bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish – konstitutsiyaviy majburiyat sifatida belgilab qo'yilayotganini aytди.

– Konstitutsiyaviy qonun loyihasida aholi salomatligini asrash bilan bog'liq normalar 4 barobar ko'paytilayotgani xalqimiz sog'lig'i ni ishonchli muhofaza etish, onalar va bolalar o'limi, yuqumi kasalliklar tahdidini bartaraf etishda juda muhim ahamiyatga ega, – dedi F.Ashmatov.

Uning aytishicha, joriy yilda "Kafolatlangan xizmatlar paketi" qayta ko'rib chiqilib, unda 20 turdag'i kasalliklar bo'yicha diagnostika, davolash va profilaktika xizmatlari hajmi to'liq qamrab olinadi. Ko'p uchraydigan 20 turdag'i kasalliklar bo'yicha birlamchi bo'g'indagi bepul analiz turlari – 15 tadan 25 tagacha, tekshiruvlar – 10 tadan 20 tagacha, dorilar – 64 tadan 90 taga oshiriladi.

B.Maniyazov esa bo'lajak Referendum haqida ma'lumot berib, bu to'g'ridan-to'g'ri demokratiyaning eng muhim instituti ekanini, davlat va har bir fuqaro uchun muhim bo'lgan qarolarni qabul qilishda xalqning bevosita ishtirokini ifodalashini ta'kidladi va andijonliklarni 30-aprelda belgilangan Referendumda faol ishtirok etishga chaqirdi.

INSON QADRINI ULUG'LASH YO'LIDAGI YANA BIR MUHIM QADAM



Navoiy viloyatining Xatirchi tumanida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi yuzasidan targ'ibot uchrashuvi tashkil qilindi.

Tadbirda ishtirok etgan Oliy Majlis qonunchilik palasati deputati O'ktam Islomov so'zga chiqib, Konstitutsiyaviy qonun loyihasi mazmun-mohiyati, kiritilayotgan o'zgarishlar haqida gapirdi.

– Konstitutsiya loyihasi ikki bosqichda tayyorlangani, uni shakllantirishda 220 mingdan ortiq takliflar tushgani va takliflarning har to'rttadan biri inobatga olingani Bosh Qomusimiz tom ma'noda xalq Konstitutsiyasiga aylanayotgani, fuqarolarimizning Yangi O'zbekistonni qurish g'oyasi atrofida birlashganidan darak beradi, – dedi O.Islomov.

Tadbirda jamoat birlashmalari vakillari, xotinqizilar, yoshlar ham so'zga chiqib, amalda Konstitutsiyaga kiritilayotgan o'zgarishlar adolatli jamiyat qurish, haqiqiy ma'noda Inson qadrini ulug'lash yo'lidagi ulkan qadam ekani ta'kidlandi.

YANGI O'ZBEKISTON, BU —

I
Keyingi yillarda ijtimoiy hayotimizga ikki tushuncha — Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans — alohida va yonma-yon tarzda shiddat bilan kirib keldi. Bu tushunchalar Prezident tafakkurida pishib-yetilib, mamlakat hayotiga bosqichma-bosqich joriylanishi ona Vatanimiz tarixida yangi davr boshlanayotganidan dalolatdir.

Mazkur mavzuga tegishli mulohazalarimizni bayon etishdan avval davlatimiz rahbarining quydagi fikrlariga murojaat qilsak:

«Muayyan xalq yoki davlat hayoti uchun g'oyat muhim ahamiyat kasb etadigan biron-bir fenomen yoki u haqqida tushuncha va tamoyillar o'z-o'zidan, osongina paydo bo'lmaydi va tasodifan dunyoga kelib qolmaydi.

Shu ma'noda, har qanday hodisa, tushuncha yoki atamaning o'ziga xos shakllanish jarayoni bor. Yangi O'zbekiston fenomeni ham bundan mustasno emas» (Shavkat Mirziyoyev, Yangi O'zbekiston strategiyasi, T: «O'zbekiston», 2021, 26-bet).

Yana shu kitobda yoziladi: «Takror va takror aytishga o'g'i keladi: Yangi O'zbekiston — tasodify hodisa, shunchaki dunyoga keladigan va o'tkinchi bir ijtimoiy voqevelik emas» (30-bet).

Bunday jiddiy tarixiy sharoida, mamlakatning burilish nuqtasida keskin qarorlar qabul qilish lozimki (qator sohalarda shunday qarorlar qabul qilinmoqda ham), shunday qarorlardan yana biri, nazarmizda, mamlakatimiz nomini o'zgartirish bo'lgan bo'ldi.

Bu jiddiy va qatlits qaror bo'lishi aniq. Oradan salfkan bir asr o'tди, O'zbekiston nomi ostida talay tarixiy hodisalar kechdi, bir necha avlod shakllanib, yashab o'tdi va yashamoqda. Binobarin, yangi (aslida eski) nomni qabul qilish qiyin kechishi tayin.

Nisbiy yaqin tarixdan ma'lumki, hozirgi O'zbekiston atamasi mustabid tuzum dohilari — Lenin va Stalin tomonidan, ular olib borgan «soxta davlatchilar faoliyat» (O'zbekistonning yangi tarixi. 1-kitor, T: Sharq, 2000, 4-bet) natijasida majburan qitsiqshirilgan nom edi.

Asl nom esa uzoq ajoddalarimiz, ota-bobolarimizdan qolqan, mamlakatimiz jismissiga mos ism — Turkistondir.

II

Agar olis tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu zaminda azaldan turkiy xalqlar yashagan, sonomiyalar, g'aznaviyalar, qoraxonyalar, anushteginlar, saljuqiyalar, xorazmshohlar, barchasi asos-e'tibor tarixda yashavtirilgan. Ayni tarixda qarorlar qabul qilinib, qarorlar qabul qilinib, allaqachon ilmiy bir xulosaga kelishgan bo'lsa-da, hanu ziyoradoroshas, eng alam qildigan joyi, ayrim millatdoshlarimiz ham tub kelib chiqishimizni O'zbekxonga bog'lab yuradi. Biz bi bilan mazkur shaxs va uning ulusi bizlarga yetti yet begona deyish fikridan ancha yiroqmiz. Ayni paytda katta bir elga o'z nomini belgi qilib qoldig'an O'zbekxon ham to'ppa-to'g'ri osmonidan tushmagan demochimiz, xolos. U ham tarixa o'z orniga ega bo'lgan qudratli xalqning, demakki, siz-u biz mansub qadimiy xalqning bir vakili edi. Shu bo'si ayrim o'zidan bexbarlarga turkligimizni, «Turkning bosh bo'g'ini» ekanimizni aytasak, tushun maydi. Aslida tushunmaydigan gapning o'zi yo'q yera. Turkiyadagi qardoshlarimiz saltan olti yul il «Usmonli» atamasi bilan dunyoning katta bo'lagini idora qilib keldi. Bugun esa butun olamga o'zini «Turk» deb tanishitirayti. «Qadim Turkistoning juquqlarimiz (bolalarimiz)» deya baralla aytilib, faxr-iftixor tuyishayapti. Mana, ko'zi ochiq qardosh millatning birdamligi. O'tmishni anglib, to'g'ri xulosa chiqarib, mamlakatni eng ilg'or davlatlar qatoriga qo'shib, yanada yusukaroq marallarni ko'zlab turibdi. Biz ham mahdudlik kayfiyatidan tezroq xalos bo'lib, teran tomirlarimizni tanib, buyuk o'tmish — buyuk kelajakka yuqinmog'imiz lozim.

Temuriylar saltanati yemirilib, oxirgi buyuk temuriy Bobur xorija surilgach, taxta chiqqan ulug' hukmdorlar Shayboniyxon, Ubaydulloxon, Abdullaxonlar ham turkiyalar, faqat ular mansub Dashti Qipchoqa (o'z paytda buyuk va bepoyon davlat) shakllangan o'zbek (o'zbek)lar yaxlit turkning bir shaxsobchasi edilar. Keyinchalik hudud uch xonlikka bo'linib ketdi va Turkiston atamasi biroz ortga chekindi. Lekin har uch xonlik aholsi etnik jihatdan turkiy ekanligi oddiy haqiqat sifatida barchaga ayon edi.

XX asr ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi hududib olib, Qo'qo' xonligini tugatib (Buxoro amirligi va Xiva xonligi vassal, qaram holiga



keltirilgandi), bu yerda Turkiston general-gubernatorligini tashkil etdi. Ko'rindiki, chor imperiyasi ham Turkistondan boshqa atama topa olmagan. Hatto huddud zabt etgan qonxo'r general, keyinchalik general-gubernator Fon-Kaufman «Kaufman-Turkistanskiy» nomi bilan sharafligani.

1917-yil oktyabr to'ntarishidan keyin hokimiyatga kelgan bolsheviklar dastlab no'mandan vozkechala omadiga. Bunga dalil 1918—1924-yillar Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik respublikasi (TASSR) amalda bo'lgan. Keyinchalik bolsheviklar mustamla kachilikning g'oyat makkor ussidi, «Bo'lib tashla va hukmronliq qil» tamoyili asosida Turkistoni beshta markazga qaram hududiga bo'lib tashladi. «O'rta Osiyon qayta taqsimlash masalasini biringchi bo'lib 1920-yilning boshida «Turkommischiya» raisi M.Rudzutak ko'taradi. Uni Lenin ma'qullab, «O'zbekiya», «Kirgiziya», «Turkmeniya» xaritasini tuzish vazifasini topshiradi» (O'zbekiston tarixi. Qisqaqa ma'lumotnomha. T: Sharq, 2000, 255-bet). Shu tariqda jahon xaritasida avval sobiq ittifoq tarkibidagi O'zbekiston SSR, so'ng sovet imperiyasi parchalangach, mustaqil O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi. Tabiiyi, bu yangi respublika xalqining nomi «o'zbek» deb ataldi.

Bugun, yuz yildan ko'proq davom etgan istibbold zulmidan xalos bo'lganimizdan o'ttiz yil o'tib ham «Biz aslida kim edik?» degan savolga uzel-kesil javob topdikmi? Garchi xalqimiz oyindirli, tarix bilimdonlar mazkur atamani atrofiche tahlil qilib, allaqachon ilmiy bir xulosaga kelishgan bo'lsa-da, hanu ziyoradoroshas, eng alam qildigan joyi, ayrim millatdoshlarimiz ham tub kelib chiqishimizni O'zbekxonga bog'lab yuradi. Biz bi bilan mazkur shaxs va uning ulusi bizlarga yetti yet begona deyish fikridan ancha yiroqmiz. Ayni paytda katta bir elga o'z nomini belgi qilib qoldig'an O'zbekxon ham to'ppa-to'g'ri osmonidan tushmagan demochimiz, xolos. U ham tarixa o'z orniga ega bo'lgan qudratli xalqning, demakki, siz-u biz mansub qadimiy xalqning bir vakili edi. Shu bo'si ayrim o'zidan bexbarlarga turkligimizni, «Turkning bosh bo'g'ini» ekanimizni aytasak, tushun maydi. Aslida tushunmaydigan gapning o'zi yo'q yera. Turkiyadagi qardoshlarimiz saltan olti yul il «Usmonli» atamasi bilan dunyoning katta bo'lagini idora qilib keldi. Bugun esa butun olamga o'zini «Turk» deb tanishitirayti. «Qadim Turkistoning juquqlarimiz (bolalarimiz)» deya baralla aytilib, faxr-iftixor tuyishayapti. Mana, ko'zi ochiq qardosh millatning birdamligi. O'tmishni anglib, to'g'ri xulosa chiqarib, mamlakatni eng ilg'or davlatlar qatoriga qo'shib, yanada yusukaroq marallarni ko'zlab turibdi. Biz ham mahdudlik kayfiyatidan tezroq xalos bo'lib, teran tomirlarimizni tanib, buyuk o'tmish — buyuk kelajakka yuqinmog'imiz lozim.

Ma'lumki, «Boburnoma» da

ko'p bora ta'kidlangan

«O'zbek» atamasi

Dashti Qipchoqning janubiy

sarhadlarida qo'nim topgan,

keyinchalik Movarounahr tomon

silijigan turkning bir bo'lagi bo'lmish

ko'chmanchi o'zbeklarni anglatdi,

«Boburnoma»da mutlaq ko'pchilik

o'rinda «O'zbek(lar)» deganda

Shayboniyxon boschilfigida Boburga

qarshi kurashgan O'zbek qabilalari

uyushmasi ko'zda tutilgan» (Bobur

ensiklopediyasi T. Sharq 2014, 601-bet).

Shuning uchun ham XVI asrda hududimizda tashkil topgan shayboniylar davlati ayrim manbalarda ko'chmanchi o'zbeklar davlati deb beziz atalmagan. Lekin o'zbek deganda yalpi turkiy etnosining ajralmas bir qismi nazarda tutilgan.

«O'zbekiston» so'zi (atama emas, so'z) «O'zbekiston», tarzida XVI asrning ikkinchi yarmida yashab o'tgan mumtoz shoirimiz Turdi Farog'iy ijodida ilk bor ishlatalgan bo'sha kerak. U bir g'azalida deydi:

Du'ahd-uh tang chashm-u besaru ya'juj vaz',
Muxtalif mazhab guruhi o'zbakistondu bu mulk.

(O'zbek adabiyoti, To'rt tomlik, 3-tom. T. O'SSSR Davlat badiy abadiyoti nashriyoti, 1959, 283-bet).

Mazmuni: Ahd-u vafodan olis,

ko'zi tor, bebosh ya'juj fe'lli, turli xil mazhablar guruhi — bu mulk O'zbekiston.

Ko'rindiki, bu bayt kirdagi

g'azal keskin hajiy ruhda bo'lib,

shoir mamlakatagi zulm, kufr va

tug'yonlardan iztirob chekib, ushu tuyg'uni g'azalda ifoda etarak,

«mutlaq kirdoro xayli kofiristondu

bu mulk» deydi g'azalning boshqa bir baytida shoir.

III

Salkam bir asr davomida

qaror topgan «o'zbek» atamasi,

entomini tariximizda ko'plab

voqe-a-hodisalar, xususan, buyuk

siyomalarimiz Amir Temur va Bobur

faoliyatini o'rorganishda, baho berishda

qator anglashilmovchiliklarga sabab

bo'limda. Tarixchilar orasida bahsmunoza yug'otgan «Temur qissasi»

kitobiga yozilgan «So'bzoshi»da yirik

tarixchi olimalrimiz H.Boboev, H. Boboyev, A. Qur'onbekovlar,

jumladan, shunday yozadilar:

«Ma'lumki, 1360-61-yilda o'zbek

amirilari Samarcanda hujum qilib,

1000 kishini asirga olib ketishadi.

Asirga olinganlar orasida 72 sayyid

va sayyidzodalar bo'ldi. Amir Temur esa o'zbek amirlariga qarshi yurish qilib, ular ustidan g'alaba qozonadi va asirlarini ozod qiladi.

Bu haqidagi barcha qo'ylozma

kitoblarda bayon qilingan. Faqat

«o'zbek amirliari» o'rniqga «o'zbeklar»,

«o'zbek tofsisi» deb yozilgan. Bu esa

zamonamizning ayrim temurshunos

olimlar-u yozuvchilari va ziyoilarni

esankiratib qo'ydi — qanday qilib Amir

nisbatan muttasil «Turkiston» atamasi ishlatalgan (qarang: Stalin I. Sochineniya, T. 5; M; 1947; Stalin I. Sochineniya T. 6. M; 1953). Faqat «Asarlar»ning 7-tomidan o'rinn olgan 1925-yil 18-mayda Sharq mehnatkashlari kommunistik universiteti talabalari majlisida «Sharq xalqlari universitetining siyosiy vazifalari» mavzusidagi nutqida «Turkmaniston» va «O'zbekiston» nomlari tilga olinadi (Qarang: Stalin I. Sochineniya T. 7. M; 1953, c. 137). Chunki bu paytda Turkistonda milliy chegaralash tugallanib, «O'zbekiston» atamasi qonumiylashtirilgan edi.

Bu voqealardan biroz oldin Turkistonning markazi qismi qanday nomlanishi borasida turli takliflar bo'lgan shekilli, Amir Olimxon tuzumi yigitlandigan keyin tuzilgan Buxoro Xalq Respublikasi Nozirlar kengashi raisi bo'lgan Fayzulla Xo'jayev Stalin bilan subhatin shunday eslagan. Mustabid qat'iy turib: «X ot chertom naz o vi, tolko ne Turkistan!» (Xohlasang, shayton debat, qafq Turkiston emas).

Turkistonning 1922-1923-yillar, SSSR tashkil etilgandan keyin o'lkada milliy chegaralish arafasida kechgan bo'lsa kerak. O'sha paytda diktatorga aylanib borayotgan ikkinchi dohiy tilidan yangragan bu qat'iy gap, aniqroq'i, buyruqduq («Folklo T. Turkistan!») anglishiladi, shu vaqtida «Turkiston» nomi kun tartibida bo'lgan va turli doiralar, jumladan, F.Xo'jayev tomonidan ham taklif qilingan bo'lishi mumkin. O'gir tanlov iskanjasida qolgan F.Xo'jayev uzoq o'ylab, o'sha sharoitda eng maqbul qaror, yangi tashkil etilgan respublikani «O'zbekiston» deb atashga rozi, to'g'riroq'i, majbur bo'lgan.

Bundan sal keyin F. Xo'jayev O'zbekiston Sovetlarining I qurultoyi tugashni bilan Sovetlarning Butunittifo III seyzed o'chilishi arafasida yozilgan va «Pravda» gazetasining 1925-yilgi sonlaridan birida e'lon qilingan maqolasida yangi tashkil etilgan tuzilmaning nufuzu haqida shunday yozgan:

«Milliy chegaralishdan keyin paydo bo'lgan O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi O'rta Osiyoning boshqa yosh respublikalari orasida siyosiy va iqtisodiy jihatdan eng katta respublikadir. O'zbekistonning bunday ustunlik ahamiyatiga ega bo'lishining sababi shuki, Sobiq Turkiston Respublikasining, Buxoro va Xorazmning iqtisodiy jihatdan eng qurvvatli rayonlari uning sostaviga kirdi» (Xo'jayev F. Tanlangan asarlar, 3-tomlik, 1-tom «Fan», 1976, 300-bet).

Ushbu gap ortidan, tagmatnda, yangi tuzilmaning «Turkiston» deb atashni dildan istagan va bunga ojiz qolgan siyosiy arbobning orzu va alami eshitilib turgandek, go'yoy. Ayni paytda Fayzulla Xo'jayev o'sha qatlits paytda majburiy eng to'g'ri qarorni qabul qilganini ham e'tirof etishimiz lozim. Chunki bundan boshqa istalgan qaror og'ir foyjalarga sabab bo'lishi ham mumkin edi. Bunga bir tarixiy misolni muquyosha qilsak o'rinfli bo'ldi. Yigirmanchi asrning buyuk turkiy siyomalaridan biri Alixon-to'ra Sog'uniy hazratlari bemisi jang-u jadallar bilan o'lkani mustaqillikka olib chiqib, unga xalqning xohis-irodasi bo'lgan tarixiy nomni beradi: «Sharqiy Turkiston!». Ming afsuski, bu sharaffi nom ga'lab a nashidasidan masrur qardoshlarimizga juday qimmatga tushadi. La'nat Stalin turkchilikidan, buyuk turkiy nomidan shunchalar yurak oldirib o'qyan ediki, shu qaror sabab o'zi o'sha vaqtida moddir va ma'naviy jihatdan qo'llab-qurvatlab turgan mazlum

Turkistonning 1922-1923-yillar, SSSR tashkil etilgandan keyin o'lkada milliy chegaralash niqobi ostida bo'lgalarga bo'lish va uning bir qismi, markaziy va o'zak qismi O'zbekiston deb nomlash bilan dastlab Lenin shug'ullangan bo'lsa, uning betobligi va vafotidan keyin hokimiyatni batamom egallagan. Stalin bo'ishni davom ettirdi va niyoyasiga yetkazdi. Stalining 1921—1924-yillarda yozgan asarlar, so'zlagan nutqlari kirdjan «Asarlarining 5-6-tomlarini ko'zdan kechirganda, mazkur hududga

Yaqin-yaqingacha ham millat oynasi deya ta'kidlangan milliy matbuot bugunga kelib go'yoki jar yoqasida yashayotgandek. Bu ham bo'sha o'z kasbini sevuvchi fidoyilar hisobiga desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ammo kundan-kunga yo'qlikka mahkum etilayotgan bosma nashrlar taqdiri hamon qorong'uligicha qolayotir. Millatga gazeta, jurnal kerak emasmi, degan iddaa bilan yozilgan maqolalar hech bir mutasaddining «pinagini buzayotgani» yo'q.

Yozuvchilar uyushmasi Badiiy publisistika kengashining yillik hisobot yig'ilishida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi Olim Toshboyev oz emas, ko'p emas 35 qog'ozlik ma'rurasida ana shunday fikr-mulohazalar bildirib, bosma nashrlar faoliyatini tahlil qildi.

Xususan, O.Toshboyev «gazeta kerakmi?» degan savolni o'rta ga tashlab, «Ayni shunday og'ir pallada dolzarb mavzularni dadil ko'tarib chiqayotgan gazetalar bosh muharrirlariga bundan keyingi faoliyatlarida mustahkam sog'iqliq va iroda tilayman» dedi.

Darhaqiqat, bugun matbuot nashrlarini varaqlagan kishi beixtiyor turli mavzularda yozilgan tanqidiy-tahviliy va publisistik maqolalarni ko'radi. Olim Toshboyev ana shunday maqolalarga munosabat bildirib ekan «Milliy tiklanish» gazetasining 2022-yil 26-sonida e'lon qilingan «Yashnoboddan chiqqan «napoleon»chilar kim?», «Zarchopondagi bo'z yamoq yoxud «Madina-Muxlis Star» MCHJ rahbari Avaz Hasanov nega butun bosqli tuman ahli noroziligini yarim chaqaga ol mayapti?» sarlavhal maqolalarda mutasaddilarning mas'uliyatsizligi sabab aziyat chekayotgan fuqarolarining e'tirozlar qalamga olingan. Shuningdek, hurmatli olimimiz, mohir hattot Rahimboy Jumaniyozovning jaholat botqoq'idan chiqish yo'li sifatida dunyoning qator davlatlarda bo'lgani kabi yurtimizda ham doimiy faoliyat yuritadigan savodxonlik markazlari ochihsini taklif etgan maqolasiga ham yuqori baho berdi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Aliqul Xonimqulovning sirdaryolik soddha yurtdoshlarimiz ishonchini suiste'mol qilib kelgan firibgar – «Karvon savdo servisi» MCHJ rahbari Mirzaali Jo'rayev haqidagi «Noningizni tuyu qilib beraymi?» maqolansini o'qib, hech narsadan tap tortmaydigan olomonga aylanib qolayotganimizdan afsuslandim, – deydi Olim Toshboyev. – Makr mirzasini lafzga ishonadigan odamlarni chuv tushirib yurganini, manfaat yo'lida tovlanchi boshini silagan bank, huquq-tartibot idoralarini rahbarlari bilmagan deb o'ylaysizmi? Ayrim mas'ullar




nazarida xalq – bola. Aldagani esa bola yaxshi. Mana shunaqa muammolarni o'qigan o'quvchi qonunlarni «o'yindan tashqari holat»ga chiqarib qo'ygan rahbarlar xalqni davlatga qarshi qayrash uchun ishlarmikan, degan shubhaga borishi tayin.

2022-yil davomida e'lon qilingan biron-bir tanqidiy-tahviliy maqola Olim Toshboevning e'tiboridan chetda qolmagan ko'rindi. Xususan, ma'ruzada marhum adib Sobir O'narning «Ikki masfkura odamlari», «Ma'rifat» gazetasi muxbir Zilola Madatovaning «Erkak o'qituvchi: fidoyil oila talablariga mos kelmayapti!», shu nashr muxbiri Humoyun Quvondiqovning «Maktablarni yopib, «Yor-yor» ochaylik!»,

«Ishonch» gazetasi muxbiri Zebo Namozovaning «Tibbiyot bozorga aylanmasin yoxud soha rivojiga nimalar to'siq bo'imoqda?», professor Baxtiyor Mengliyevning «Darslik yaratish – amalda tizimli jarayon(m?)», Zuhra Asadovaning «Titilab... tikilib yotgan yoxud bir chorakka ham chidamatoytan darsliklar. Bu korrupsiya emasmi?» kabi maqolalarda ta'lim tizimida mayjud muammolar dadillik bilan yoritilgan, – deydi Olim Toshboyev.

Ma'ruzadagi gazetalar bekorga «yashamayotgani», ko'pchilik e'tiboridan chetda qolgan muammoga aynan bosma nashrlar e'tibor qaratayapti: «XXI asr» gazetasida Halim Sayidning «Savol juda oddiy: Prezident



GAZETA O'QISH QADRIYATGA AYLANMAS EKAN, tanjidlar sarg'aygan sahifalarda qolib ketaveradi...

qarori nega bajarilmayapti?» sarlavhal maqolansini o'qib, ijro tizimi nega izdan chiqqan, degan o'rinci savol o'rta ga tashlanadi. Unda keltirilgan: «Prezident qarori ko'zbo'yamachilik yoki PR uchun chiqarilmaydi! Davlat rahbari imzolagan hujjatda maktab kutubxonasi fondi uchun mablag' ajratish zarurligi uqtirilyapti!!! Kutubxona fondini rivojlantirishga ajratiladigan mablag'lar esa Sizning shaxsiy mulkingizemas, janob hokimlari.. Kerakli mablag'larni topib, to'g'ri yo'naltirib, xalq ta'limga o'id gazeta-jurnal shaklida shaxsiy nazoratingiz ostida maktablarining g'arib holga kelib qolgan kutubxonasi yetkazing! Bu – Prezident topshirig'il!» degan jumlalarni o'qib, yana bir bor ijrochi mas'ullardan hafsalangiz pir bo'ladi. Nahotki, ularning jilovini tortib qo'yadigan idora topilmasa? Nazarimda, vazirlıklar, hokimliklari, turli idoralar O'zbekiston qonunları, Prezidentning farmon va qarorlarini bir chetda qolib, tinka quritar majlislar o'tkazish bo'yicha poysa o'yashsa kerak...»

Olim Toshboyev shuningdek, jurnalist Noilaxon Ahadovaning «Uch oyda 39 ta mash'um falokat... ulkan yo'qotish» «Oila va tabiat» muxbiri Saidi Ibdinovaning «Bu yo'llar tarband yo'llar va shu tarband yo'llardagi o'ylar», «Yordam qiling, bolam och...» Tilanchilikka qachon chek qo'yiladi?», «Yoshlar ovozi» gazetasi muxbirleri Shahribonu Rahmatova va Behruz Rajabovning jamiyatimizda «qon yutayotgan qonunlar» borligiga iddaa qilgan «O'zbekistonda qonunlar ishladi?» yoxud Toshkent ko'chalaridagi reklama yozuvlariga nazar», Shaxruza Sattorovaning «Qog'ozda bor, amalda yo'q qonunlar: imkoniyati

cheklanganlar ko'chalarga sig'mayaptimi?», «Ko'chada qolayotgan «kelajak» «32 yil faqat bayram qildik...(mi?) sarlavhal maqolalarini tahlil qilib, eng dolzarb muammolarga hukumat e'tibor qaratishi shart, degan fikri bildirdi.

Ma'ruzada shuningdek, «Milliy parlamentimiz nega sukul saqlamoqda?» sarlavhal ma q o l a m i z d a n i q t i b o s keltirildi: «Parlament nashri – «Xalq so'zi» gazetasi bosh muharriri O'tkir Rahmat bong urdi, ammo deputatlar sukul saqlamoqda. «XXI asr» gazetasi orqali Norqobil Jalil muammsga keskin munosabat bildirdi. Lekin jamiyatning «bos» partiyasi «O'zLiDeP» jimi! «Ishonch» bosh muharriri Husan Ermatov masala mohiyatini hijjalab tushuntirib berdi, biroq parlamentimiz bu chiqishga ham ishonchszil bilan qaradi... Nahotki, milliy parlamentimiz uchun milliy matbuot – jamiyatda ijtimoiy fikrni shakkantiridigan, ongu tafakkurimizni, qarashlarimizni o'zgartiradigan asosiy «qurol»ning jangga shay yoki shay emasligi qiziq bo'limasa. Ertaga kech bo'ladi. Chunki...»

Yana ma'ruzaga qulqututamiz: Matbuot – millat oynasi ekanligini ta'kidlab, «Gazeta nega kerak?»ligini asoslab bergan jurnalist Husan Ermatov maqolasida bosma nashrlardek savodli OAV hozircha shakllanmagani, o'zini ovoza qilishdan charchamayotgan piarchilarning, axborot xizmatlari mutasaddilarining aksariyatida asosiy muamme ma'liz tuzish, xatosiz yozish, faktlarni to'g'ri joylashtirish, muammoni to'g'ri talqin qilishda ko'rinyotganiga urg'u beradi. Achinarli, gazetalar to'rt yil davomida

maorif sohasidagi o'nlab o'ta dolzarb muammollarni ko'tarib chiqqan bo'lsa-da, loaqal ularning birortasiga qoniqlari javob bo'lmasidan kuyungan bosh muharrir beshta markaziy gazetada e'lon qilingan «Haqiqatga tik boqing, janob!» deb nomlangan maqlolini ham Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vaziri javobsiz qoldirganini taassuf bilan qayd etadi.

Butun dunyoda matbuot tahliliga o'tganiga, ma'rifatlari jamiyatlarda kundalik nashrlarga obuna ko'payotganiga e'tibor qaratgan Husan Ermatovning fikriga ko'ra, gazeta kerak emas, deb bong urayotganlar haqiqatdan qo'rquvchilardir!

Marhum Safar Ostonovning bundan ikki yilcha avval yozilgan «Gazeta o'qimay ham yashash mumkin» maqlasasi obuna haqida, gazeta-jurnallarning istiqboli haqida goh xayriyohlik, goh g'arazo'yilik, goh xudbinlik bilan munosabat bildirilayotgan bir davrda ogohlilik qo'ng'irotg'i day jaranglagan edi. Rahmatli Safar aka yagtanidagi, «Gazeta bu - siyosat, g'oya, mafkura, ma'rifat... Davlatning siyosatini odamlarga, odamlarga, xohish irodosini davlatga, hokimiyyatga yetkazadigan vosita». O'tkin Rahmatning «Har kungi mo'jiza; u tizimli islohotlarga muhtojoj» («Xalq so'zi»), Norqobil Jalilining «Qayerdasan, «to'rinchinchi hokimiyyat?» Yoxud matbuot uchun chalayotgan ogohlilik qo'ng'irotg'i, Husan Ermatovning «Gazeta nega kerak?» maqlolarida ham o'ta jiddiy, aytish mumkinki, tahlikali vaziyat muhokama qilinadi. Ammo... Hukumat bu umummiliy masalaga hamon panja orasidan qarab keltapti», deb yozadi Olim Toshboyev.

H a q r o s t , b u g u n jurnalistikada bir-biridan mutlaqo keskin farq qiladigan ikki toifa shakllandi. Biri moyana va gonorar - qalam haqi bilan kun ko'rayotgan fidoyilar, ikkinchisi qonunlardagi «tuyunik» dan ustomoniq bilan foydalananayotgan o'lponchi qalloblar. Taassufki, ikkinchi toifani hokimliklar, bank, moliya idoralari rahbarlar va boshqo rasmiy mahkamalar vakillari kulcha bilan kutib oladi. Gazeta o'qishta kelganda majburiy obunadan «aziyat» chekayotgan bechoraga aylanadi yoki vaqtি yo'qligi eng yaxshi bahona. Bir so'z bilan aytganda, toki, gazeta o'qish qadriyatga aylanmas, hukumat bu sohanii qo'llab-quvvatlamas ekan, tanqidlar sarg'aygan sahilalarda qolib ketaveradi...



Mahbuba KARIMOVA,
jurnalist

YOSHLAR PARLAMENTI A'ZOLIGIGA SAYLANGANLAR

Xabarlingiz bor joriy yilning yanvar-fevral oylarida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zoligi uchun saylov o'tkazildi. Ikki bosqichda o'tkazilgan Saylova jami 1273 nafer yoshlarda hujjatlar kelib tushdi hamda hududiy tashkiliy qo'mitalarning saralash bosqichi xulosalariga ko'ra jami 346 nafer saralangan nomzodlar ro'yxati Saylov hay'atiga baholash uchun tavsivi etildi.

Partiyaning hududiy Kengashlaridagi Saylov hay'atlari tomonidan baholash natijalariga ko'ra jami 108 nafer nomzodlar sayloving Respublikasi bosqichida ishtirok etishi uchun tavsija etildi hamda ularning 36 naferi saylandi. Fursatdan foydalanim, partiya jamoasi saylovida faol ishtirok etgan barcha yoshlarga minnatdorlik bildiradi va kelgusida ular bilan aloqalarini mustahkamlashdan manfaatdor ekanligini ma'lum qiladi. «Milliy tiklanish» demokratik partiyaning ko'ping ming sonli a'zolari nomidan Yoshlar parlamentiga saylangan barcha yoshlarni tabriklaymiz va ularning faoliyatida omadlar tilaymiz!

1 – Nukus saylov okrugi	4 – Amudaryo saylov okrugi	11 – Bo'z saylov okrugi	13 – Asaka saylov okrugi
15 – Xo'jaobod saylov okrugi	17 – Qo'rg'ontepa saylov okrugi	24 – Kogon saylov okrugi	27 – Varaxsho saylov okrugi
28 – Poykent saylov okrugi	36 – Paxtakor saylov okrugi	41 – Xatirchi saylov okrugi	42 – Nurota saylov okrugi
47 – Pop saylov okrugi	61 – Qo'shrabot saylov okrugi	62 – Ishtixon saylov okrugi	69 – Toyloq saylov okrugi
72 – Guliston saylov okrugi	77 – Angor saylov okrugi	81 – Qumqo'rg'on saylov okrugi	88 – Bekabod saylov okrugi
93 – Parkent saylov okrugi	104 – Uchko'priy saylov okrugi	109 – Qo'shetepe saylov okrugi	111 – Farg'ona saylov okrugi
113 – Toshloq saylov okrugi	115 – Quvasoy saylov okrugi	116 – Navbahor saylov okrugi	119 – Gurlan saylov okrugi
122 – Xiva saylov okrugi	124 – Qo'shko'pir saylov okrugi	125 – Qamashi saylov okrugi	127 – Qarshi saylov okrugi
130 – Kasbi saylov okrugi	142 – Qoraqamish saylov okrugi	144 – Dombirobod saylov okrugi	146 – Astrobod saylov okrugi

JUMRI

QAMOQ, SURGUN, RUHİY

1922

-yil.
Afsuski, ayni shu yildan boshlab ziyozi xotin-qizlarga nisbatan ayovsiz munosabat boshlandi.
Ayniqsa, ilmli va savod chiarishni istagan nozik xilqat vakillarining boshiga ko'z ko'rib qulog eshitmagan musibatlar tusha boshladi. Ularning ko'plarini o'qib, shunchaki dahshatga tushasiz. Nahotki, nima uchun, degan savollar yog'iladi, ammo, ba'zan moziyning qat-qatlarni titkilasangizda, bирор javob topilmaysiz.

Ma'lumki, XX asrning birinchi choragida sho'rolarning milliy chegaralarish siyosiy natijasida yangi bir huduyi birlig - O'zbekiston davlati yuzaga keldi. Mamlakatda xalq xo'jaligini tiklash, yer-suv, sanoat va savdoni oyooqa qo'yishda keng ko'lamli ijtimoiy, iq'tisidiy, siyosiy va madaniy islohotlar boshlandi. Tabibi, bu jarayonda o'zbek xotin-qizlari ham faol ishtirok etdilar. Ular nafaqat zavod va fabrikalarda, balki ilm-fan, maorif, ta'lim, tibbiyat va madaniyat muassasalarida ham mehnat qila boshladilar. Hukumat tomonidan ko'lab qizlar Moskva, Leningrad, Boku, Berlin kabi shaharlarga tahsil olishga yuborildi. Natijada, ko'p o'tmay barcha jabhalarda, hatto sud va prokuratura sohalarida ham o'zbek ayollar ko'rina boshlandi. XX asrning 20 – 30-yillarda ijtimoiy hayotda kechgan sanoatlashtirish, kolxozaqlashtirish kampaniyali "Hujum" harakati o'zbek ayollarining jamiyatida yangi bir kuch sifatida bo'y ko'rsatishiga xizmat qildi. Sababi, ko'lab siyosiy tadbirlar, matbuot tashviqoti, kino, teatr va boshqalar o'zbek ayollarining dunyoqarashsiga ta'sir ko'rsatdi. Endi ular ham o'z-haq huquqlari, turmush sharoitlari uchun kurashishga intilar edi. Ayollar matbuoti, bilim yurtlari, omavviy tadbirlarda faol ishtirok eta boshlashdi. Biroq, bu sho'rolar mamlakatinining maqsadi emas edi. Sho'rolar mamlakati har qanday erkin fikrga, har qanday mustaqil tafakkura dushman sifatida qaraq edi. Natijada "Katta qirg'in" davrida qisqa muddatda o'zbek ayollarining eng ilg'or qismi mahv etildi. Ular orasida Germaniyada tahsil olib qaytgan Xayrimiso Majidxonova, Maryam Sultonmurodova, Moskvada ta'lim olgan Mahbuba va Matluba Muhammedovalardan boshlab, bor-yo'q gunohi davlat arbobi, adib yoki jurnalistning turmush o'rtog'i bo'lgan Xadicha Aliyeva, Kimyoxon Ashurova,

Tojixon Ahmedovalar ham bor edi. Aytish mumkinki, zulum va zo'rvonlik ustiga buniyod etilgan sho'rolar bir necha minglab o'zbek ayollarini boshini kundada qo'ydi. Shuhulardan biri Maryam Sultonmurodova 1905-yil 13-fevralda Xiva shahrida tug'ilib, dastlab Chandirqiyot qishlog'ida o'zingin 2 tanob yerida dehqonchilik bilan shug'ullangan. Otasi Jumaniyoz Sultonmurodov, Urgancha borib, Chernikov degan boyning paxta tozalash zavodida dastlab tarozibon, so'ng paxta oluvchi bo'lib ishlagan. Mulla Jumaniyoz haqgo'y va taraqqiy parvar inson edi. U 1916-yil zulmiga qarshi xalq qo'z'olonda ishtirok etib, Xiva xonining ta'qibiga uchraydi. Shu bois, 1919-yilgacha To'rtko'lda yashashga majbur bo'ladi. Inqilob natijasida Xiva xonligi hududiga qaytib kelgan Jumaniyoz Sultonmurodov bolsheviklar yordamida Harbiy tribunal rahbari, Xorazm Xalq Respublikasi Xalq komissarlar Kengashi raisi, Xorazm kompartyasi kotibi lavozimlarida ishladi.

Jumaniyoz Sultonmurodov qizi Maryamni 1911-yil Urganchagi besh yillik no'g'oy (tatar) maktabiga beradi. Oilasi To'rtko'lg'a ko'chib o'tgach, bu yerdagi jadid maktabida ta'limni davom ettiradi. Maryam Sultonmurodova 1919-yildan Toshkentdagi maorif maktabi gimnaziyasida o'qydi. Shundan so'ng olyi ma'lumot olish maqsadida 1920 – 21-yillarda Orenburg tatar pedagogika institutida o'qydi. 1921-yilgi yozgi ta'tilda Xorazmga kelgan Maryam Xorazm kompartyasi Markaziy Kengashida avval adabiy bo'limga, so'ng ayollar bo'limiga rabbarlikka tayinlanadi. Biroq, og'ir tarixiy sharoit u qiyinchiliklар unga ko'nglidagidek ishslash imkonini bermaydi. Natijada 1922-yil iyulda Toshkentga kelib, O'rta Osiyo davlat universitetining Ishchi fakultetiga hujjat topshiradi. 1922-yilning oktyabrida Maryam Sultonmurodova Buxoro hukumatu tomonidan Germaniyaga o'qishga yuborilayotgan talabalar safiga kiritildi. Xorazm Xalq Respublikasining Moskvadagi muxtor vakilligi xodimi Karim Safayev yordamida Maryam xorij uchun passport olib, Leningradga boradi. Leningrad portidan Xayrinisa Majidxonova bilan birga 29-iyuldan 18-avgustgacha Parij shahrida bo'ladilar. Ularning Parij opera teatri oshxonasida Ahmad Naim va Mustafao Cho'qaylar bilan 2-3 daqiqalik uchraslivi keyinchalik qatag'on etilishi uchun asosiy bahona bo'lgan edi. 1927-yil kuzidan Maryam Berlin shahriga yetib boradilar. Hech qachon ochiq dengizni ko'rmagan sahro qizi paraxodga chiqishi bilan manzilga yetib borguncha betob bo'ladi. Maryam Sultonmurodova 1922 – 23-yillarda Berlin universiteti qoshidagi olti oylik tayyorlov kursida o'qydi. 1924-

,,

1938-yil 9-oktyabrdan bo'lgan "Uchlik" sudi soat 11:35 dan 11:55 gacha davom etdi. Maryam Sultonmurodova 10-yil muddatga qamoqqa hukm etildi. U jazoni dastlab Toshkent, so'ng Qozon, Suzdal turmalarida o'tadi. Keyin uzoq Kolima viloyatiga yuborilib, Magadandagi "Dalstroy" qurilishida 1947-yil 13-sentyabrgacha azob-uqubat chekdi. Farzandlari va qardoshlar sog'inchu unga o'limni yo'latmadи. Jazo muddati ish berishmaydi. 1929-yilning

fevraliga kelib esa Germaniyada ta'lim olgan Badri Sayfulmulk yordamida O'zbekiston Sog'liqni saqlash komissarligiga qarashli bolalik va onalikni asrash institutiga hamshira bo'lib ishga kiradi. U 1929-yilning oxirlarida Asqar Axmadbekov bilan oila qurib, 1933-yilgacha Kattaqo'rg'onda yashaydi. Eri qamoqqa olingach, 1933-yil Toshkentga keladi va O'rta Osiyo davlat universitetiga ishga kiradi. Biroq, 1934-yili yana ishsiz qoladi. So'ng, "Guliston" jurnaliga, 1936-yildan ayollarning "Yorqin turmush" jurnaliga adabiy xodim bo'lib ishlay boshlaydi. Maryam o'zbek matbuotida o'zingin olmon adabiyotidan qilgan tarjimalari va ayollarning o'tkiz ijtimoiy muammolarga bag'ishlangan maqolalar bilan tanila boshlaydi. Yosh jurnalist Davron Madamining turmushga chiqib, baxtili hayot ostosanida turgan paytidagi yana iztirobolar girdobiga uloqtiriladi...

1937-yilning 13-sentyabr kuni Maryam Sultonmurodova 1922 – 28-yillarda Germaniyada o'qigan, "Turkiston" joususlik tashkiloti a'zosib, O'zSSR JK Ning 60 (aksilinqilobiy tashvish), 67 (aksilinqilobiy tashkilotga a'zolik) moddalar bilan ayblanib, qamoqqa olinadi. Tintuv jarayonida uning pasporti, diplomi, mehnat daftarchasi, xatlari, kitoblari, 35 ta shaxsiga suratlari xatlanib hammasi tortib olinadi. Ortidan onaizori Durdijon aya va norasidasi Po'latjonlar zor yig'lab qoldilar. Maryam olti oylik norasida qizi Anora bilan qamoqxonasi azoblariga girifor etildi.

Maryam Sultonmurodova 1938-yil 4-oktyabrdan so'nggi bor so'roqda ham "Germaniyada "Ozod Turkiston" degan tashkilot hech qachon bo'lmagan va bu haqidagi men shu yerda eshitidim. Boshqa hech narsa qo'shimcha qila olmayman. Mening hech qanday aybim yo'q", deydi. Uzoq vaqt davom etgan azobli tergov davomida unga qo'yilgan birorta ayb o'z ibottini topmaydi. Biroq Maryam O'zSSR JK Ning 57-moddasi I qismi (Vatanga hiyonat, harbiy va davlat sirlarini so'ish, shpionaj), 58 (qurolli qo'z'olonga harakat), 64 (Sovet davlatiga qarshi terakt), 67 (aksilinqilobiy tashkilotga a'zolik) moddalar bilan aybli deb topiladi. 1938-yil 9-oktyabrdan bo'lgan "Uchlik" sudi soat 11:35 dan 11:55 gacha davom etdi.

Maryam Sultonmurodova 10-yil muddatga qamoqqa hukm etildi. U jazoni dastlab Toshkent, so'ng Qozon, Suzdal turmalarida o'tadi. Keyin uzoq Kolima viloyatiga yuborilib. Magadandagi "Dalstroy" qurilishida 1947-yil 13-sentyabrgacha azob-uqubat chekdi. Farzandlari va qardoshlar sog'inchu unga o'limni yo'latmadи. Jazo muddati tugagach, vatanqa qaytib,

Urganch tumani, Yangibozor fuqarolar yig'indida hamshira bo'lib ish boshladи. Biroq, uning xursandchiligi yana uzoqqa bormadi. U 1949-yil 30-martda qayta qamoqqa olindi va bu gal ham eski "jinoyatlar" uchun O'zSSR JK Ning 57-moddasi I qismi (Vatanga xiyonat, harbiy va davlat sirlarini so'ish, shpionaj), 67 (aksilinqilobiy tashkilotga a'zolik) moddalar bilan uzoq Krasnoyarsk o'ksasiga surgun qilindi.

Yurak xastaligiga, pnevmosklerozga yo'liqqa sho'rik ayol shu tariqaga yana besh yil vatanf va bolalari diydoriga to'ymay, mahkumlik azobini tortadi. 1954-yil 1-sentyabrdan uyiga yozgan xatini: "Azzilarim! Bizlar bugun surgundan bo'shadig. Uy va mollarni o'z bahosiga sota bilsak, oktyab oylarida ketamiz. Sota bilmasak, bu yerda qishlaysiz. Rahmat, albatta, pasport olishi bilan ketadi. U sizlarning yoningizda bo'lsa, birmuncha joniim tinch bo'lajak. Sog' bo'ling. Sog'liqa ko'rishaylig. Xat yozinglar, hammangiziga salom bilan Maryam" deb yakunlaidi. Maryam Sultonmurodovaning 1956-yil 10-mayda bosh prokurorga yo'llagan xatida o'ziga qo'yilgan ayblarni asossiz deya hisoblab, ularni rad qiladi: "Meni ayblashlaricha, go'yo men Berlinda bo'lgan vaqtimda "Ozod Turkiston" aksilinqilobiy joususlik tashkiloti a'zosib bo'lib, shu tashkilotning topshirishiga uchli shishlar bilan borgam emishman. Men hech qachon birorta aksilinqilobiy tashkilotning a'zosib bo'lgan emasman! "Ozod Turkiston" degan tashkilotning borligini men birinchi bor tergov vaqtidagina eshitdim. Mening bilishimcha, 1922-yil Buxoro va Turkiston Jumhuriyatlaridan oltishingha yaqin kishi Germaniyada o'qishga yuborilgan edi. O'sha yilning kuzida Xorazm rahbarlari qarori bilan men shu safga qo'shildim. Menga endi bizning oldimizda Yevropa fan-teknikasini quvib yetish va o'zib ketish vazifasini turganligini aytishganlardan keyin men u yerda o'qishga roziliz bergan edim. 1922-yilдан to 1924-yil boshlarigacha Berlinda bo'ldim, keyin Darmshatga o'qishga ketdim. Shuning uchun men o'zimming talabalaramiz bilan kam munosabata bo'lar va ko'plari bilan shaxsan tanish ham emas edim. O'sha vaqtarda mazkr talabalarni "Turkiston talabalari jamiyat" nomli hamyurtlar jamiyatini birlashtirib turishini bildiradi. Bu yurtoshdoshlik mazmunidagi ochiq tashkilot bo'lib, uning faoliyati davlatimizning vositalichigiga bilan bog'langan edi. Keyinchalik bu uyushmani Germaniyadagi butun Sovetlar Ittifoqi talabalari uyushmasi bilan birlashtirdilar. Bundan boshqa yana qanday

WA MA'NAVIY TA'QIB LARDA

O'TGAN AHRO OIZI



talabalar uyunmasi bo'lganligi mena sira ma'lum emas. Meni Toshkentga kelgan vaqtimda allaqanday Eymgland nomli professor orqali josluslik ishlari olib borganlikda aybladilar. Bu tuhmat! Men hech qachon bunday odam bilan tanish bo'lganman. Shunday odamning borligini ham birinchilbo'lganligida etishdim. Men dushmanga qanday ma'lumot berdim va u qanday amalga oshirildi? Bunday aybning tasdig'i uchun biror daifil va guvohlar ko'rsatiladi. Menga nisbatan soxta guvohlik bergan odam bilan esa yuzma-yuz qilishni rad etishdi. Shuning o'zi menge yo'qilgan aybning yolg'on va soxtaligini ko'rsatib turdbi..." deb yozgan arizasi asosida uning ishi qayta ko'rib chiqishiga topshirildi. 1956-yil 13-sentyabr kuni o'tkazilgan so'roq davomida u boshidan kechirgan barcha ko'rgiliklarni birma-bir hikoya qiladi. Jumladan: "... 1949 – 54-yillar Krasnoyarsk o'ksasida surgunda bo'lib qaytdim, hozirda Quramon qishlog'ida hamshirha bo'lib ishlayman. Berlinda "Turkiston talabalar uyunmasi" degan tashkilot bo'lgan. Ammo, uning tadbirilarida faqat ilmiy munozaralar bo'lar, talabalarning ta'lim jarayonidagi muammolarini va iqtisodiy masalalarini muhokama qilar edik". Shuningdek, u Tashkilot rahbarlaridan To'lagan Mo'minovni juda bilimdon, Sulton Matqul niyoqat bosiq, mulohazali, Temur Kazbekovni

sho'x, hazilkash, Sattor Jabborning esa yetuk olim va adabiyotga oshno inson sifatida umrbod xotirasida qolganini eslaydi. Maryam Sultonmurodova 1957-yil 2-avgustda SSSR Olyi Sudi harbiy kollegiyasi tomonidan oqlanadi. Biroq u to'liq oqlanganidan keyin ham ro'shnikol ko'rmaydi. Unga nisbatan ta'qiblar to'xtamaydi, sevgan sohasi jurnalistikaga bilan shug'ullanish u yodqa tursin, uning matbuot sahifalarini o'qishiga ham to'sqinli ko'rsatiladi. Maryam qorong'u kechalarda o'zining erksiz, baxtsiz hayotini quydigicha qog'ozga tushiradi: "...Jonim azobda qoldi. Yuragimni ochib so'zlaydigan kimsani yo'q. Qalbimni qog'ozga to'kib solmoqchiman. Shu niyatda qo'llimga qalam oldim. Menim vijdonim poledi. Men berilib, vijdon bilan mehnat qillardim. Ammo, hech qachon jinoyat qilmagan esanda, meni yana qamoqxonaga tashladilar. O, qanchalar azobda qolganimni bilsalar edi... 1954-yilda yana yurtimga qaytib keldim va Urganchning Quramon qishlog'ida ishlay boshladim. Bu yerda ham atrofimni o'shanday johil odamlar surshadi va menga avvalgiday azob berib, mazax qila boshlashdi. Ba'zilari mening taqdirdimi ularning qo'lida ekanini anglatib qo'yishga urinsa, boshqalarini men bilan yaqinlashishga, do'stlashishga

harakat qilishi. O'zlarini yaqin ko'rsatish uchun har xil gaplar qilishi. Masalan, bir kishi mening siyosat bilan qiziqish-qiziqmasligim, gazeta o'qish-o'qimasligimni surishtirganlarni so'zladi. Surishtirsa surishtiraverishsin, mening hech qanday yomon odamlar bilan biror salom-aligim yo'q. Hokimiyat qarshi biror yomonlik qilish xayolimga ham kelmaydi. Men bilan qiziqishha qiziqaverishsin. Bu ularning ishi. Ammo, baribir, alam qilarkan kishiga. Odamlardan uyarkansan. Bu alfozda yashamoq qanchalar og'ir! Menga bo'lafikdan, vijdonli inson xalqi va davlati dardiga malhamb bo'limg'i kerak, deb o'rgatishardi. U o'z vatanining ijtimoiy hayoti bilan qiziqimg'i, hukumatning maqsadini va vazifalarini nimadan iboratligini bilmog'i kerak, deyishardil. Aks holda, u yurtimning haqiqiy fuqarosi bo'lomaydi. Matbuot - ijtimoiy hayot maktabidir!

Matbuot - kishilarni olga undovchi bayrov! Shunday ekani, menegi nega gazeta o'qishim mumkin emasligini tushuna olmayman. Ona yurtida nima bo'layotganidan bexbabar kishi unga qanday xizmat qila oladi, o'z xalqiga qanday foysa keltira oladi? Lekin shunday deb surishtirayotgan bo'lishsa, demak, haqiqatdan gazeta o'qimasligim kerakdur, dedim-du, uch yil mobaynida qo'llimga gazeta va jurnal ushlasmadim. Lekin bundan so'ng ham menga o'sha-o'sha munosabatda bo'lishgach, xato qilayotganimni, meni baribir o'z holimga qo'ymasliklarini angladim, bo'lganicha bo'lar, deb qo'l siltadim. Kelasi 1960-yil uchun ko'pgina gazeta va jurnallarga obuna bo'ldim. 1957-yilda meni oqlashganida mendan baxtili odam yo'q edi. Bir necha yillik orzuvi ushaldi, iztirobilarni tugadi. Har bir ayol singari oilamga, farzandlarimga g'axmo'rlik qilaman, deya xursand bo'lganlarim... Ming afsus, ko'p o'tmay haliyam nazorat ostida ekanligim, sharmisorlik tamg'asining yuki yelkamdaligini angladim. Seni oyoq osti qilishlari, kamitsishlari, "men"ingni o'dirishga urinshilarini his etishdan ortiq alam, azob yo'q bu olamda. O, bu qanchalar og'ir! Eng yomoni, ular orasida ayollar ham borligi. Agarda menge yuqorida, masxaramuz qarayotgan mana shu kimsalar menden yaxshiroq va mendan

pokroq bo'lishganda-ku, balki bu holga chidardim. Lekin aslo unday emas edi. Aksincha, ularning biri chayqovchilik, ichkliklilik, buzuqlik qilardi. Ikkinchisi, birovning erini tortib olgan, farzandini otasiz qoldirgan edi. O'z yurti qonunlarini hurmat qilmagan kimsani vijdoni kishi deb bo'ladimi, unga ishonib bo'ladimi? Vijdon qonunini pisand qilmagan, boshqalarining ko'z yoshlarini oqizgan kimsani inson deb bo'ladimi? Haqiqiy inson hamma yerdai: hayotda ham, ishda ham soy vijdoni bo'limg'i darkor. O'zları aslida chirkin tabiatib, pastkash odamlar meni qo'rtitishar, osuda hayotimni zaharlashga urinshardi. Bir kuni o'sha ayol go'yo mena achingan bo'lib, o'g'limni ishonchliroq joyga joylashtirishni maslahat berib, "Kim biladi, hali boshingizga ne savdor tushadi?", dedi. Men unga o'g'lim hali yosh bola, menga biror kor-hol bo'lishiga aqlim bovar qilmaydi, dedimdu, xotirjam ishlay boshladim. Shunda u istehzoli tirjayıb: "Juda irodangiz kuchli ekan", - dedi. Hech bo'lmasa mana shu kimsalar meni tinch qo'yishsa edi, ko'nglimga g'ulu solishmasa edi. Yo'q, ular menga sira tinchlik berishmas, olovga moy sepishardi. Menga o'zlarini yaqin ko'rsatib, har nimalarni ochiq gapirgung bo'lib, qanday maqsadni ko'zlashyapti ekan? Mendan birga ishlagan hamkasblarini haqida surishtirganida bir ayolning nomini tilga olgandim. Oradan bir muncha vaqt o'tgach u menga: - Afus, ular sizni tinch qo'ymaydigan ko'rindi, - dedi. Yaqinda esa, oramiz buzilib qolganda: - Shuni bilib qo'yinkingi, taqdiringiz menga judayam bog'liq! - dedi zarda bilan. Har kimsa kayfiyatiga qarab men bilan xoqlaganicha gaplashishi mumkin ekan-u, men tilimini tiyib, indamasligim kerak... Hamma vaqt shunday. Hatto hamshirlik maktabida ham bir kishi bo'lguvchi edi. Qayerga borsam ro'paramdan chiqaverardi. Nahotki, men shunchalar xavfli jinoyatchi bo'lsam, nainki meni nazorat qilish uchun butun boshli shat belgilansa? Nahotki, shunday qilishga ular haqli bo'lslar? Davlat manfaati meni nazorat ostida tutishni talab qildi deyil, nega ular meni namoyish qiladilar? Negaga endi meni biliq turishim kerak? Yoki meni qo'rtitishmoqchimi? Negaga? Agar mening pokligimga zarracha

bo'lsada ishonzhsizlik bo'lsa, meni oglasmasliklari mumkin edi-ku?! Mana shunday xayollar meni qiyinaydi. Jonim azobda qoldi. Men butun umr vijdon bilan yashadim va mehnat qildim. Hayotimda bir bor beixtiyor qoqilgan bo'lsam, nahotki qayta-qayta yiqitish, qaytib qad rostlay olmaydigan qilib tashlash kerak? Nahot menga qo'l cho'zib to'g'ri yo'liga boshlash mumkin emas? Nahotki, meni ham xalqimizga xizmat qilish uchun barcha qator to'g'ri yo'liga boshlash mumkin emas? Neqa endi menim dildiragan qalbimni iliq so'z bilan, do'stona e'tibor bilan isitish mumkin emas?.."

Bunday haqsizliklari ham Maryamning irodasini sindra olmadni, o'zini bir lahzha bo'lsin aybdor deb bilmadi. Haqiqatga ishondi, insomiyligini yo'qotmadni. Bu bilan sh'orolar tuzumining sharmandali tarixida inson matonati timsolni sifatida qoldi. Maryam Sultonmurodova qalamiga mansub ko'plab maqola va ocherklar, "Mehr ko'zda", "Kutilmagan baxt", "Qalbin nidosi", "Rahmat desinlar", "Majnuntol", "Karvonlar kelganda", "Betamiz yigit" sarlavhali hikoyalari bu ayloning yuksak iqtidoridan darak beradi. Maryam Sultonmurodova ilm-ma'rifat fidoysi, bardoshli jurnalist, mehlri hamshirha edi... Birgina, aybi Germaniyada o'qigani bo'lgan Maryam Sultonmurodova singari ko'plab ilmlni o'zbek ayollarini tuhmatalar bilan ruhiy, jismoniy azoblarla duchor qilingan. Biri surgun, ikkinchisi qatag' on qilingan. Ayollarga xushmuomala bo'lish, uni suyish, ehtirom ko'rsatish eng yaxshi qadriyatlarimizdan bori. Islomda ham bu xilqatni asrab-avaylash kelajakda sog'lon avlodlar dunyoga kelishi bilan bog'liq ekani ta'kidlab kelinadi. Bugungi kun xotin-qizlarining jamiyatidagi o'rni xususida batafsil to'xtalishning hojati yo'q, nazarimda. Chunki, ijtimoiy taromoqlar rivojlilangan bir zamonda yashayapmiz va butun dunyoda "ojiza" deganimiz nimalarga qodirligini ko'rib, kuzatib boryapmiz. Kerak bo'lsa, qo'llab-quvvatlayapmiz. To'g'ri, bu borada, ya'nii xotin-qizlar zo'ravonligi masalasiga oid muammolarimiz bor. Ammo bugun tazyiqqa, jismoniy zo'ravonlikka uchrangan har bir ayol, qizlari davlat himoyasida.



“

YUNESKO Navro'zni insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritgan. Bu bayram turli tillarda turlicha – Nawrouz, Novruz, Nowrouz, Nawrouz, Nauryz, Nooruz, Navruz, Nevruz, Nowruz, Navruz deb nomlanadi.

NUOTAVI
-NAZAR

Navro'z QADRIYATLAR QADRLANADIGAN KUNLAR BOSHIDIR

Navro'z ayrim manbalarda keltirilganidek shunchaki bayram emas, balki xalqimiz tarixi, falsafasi, tushunchatasavvurlari, eng asosiyi qadriyatlarni o'zida mujassam etgan, millat bilan ulg'ayib, millat bilan birga taraqqiy etgan bayramlarning bayramidir.

Aytish mumkinki, mustaqillik davrida Navro'z tamomlida yangicha mazmun va mohiyat kasb etdi. Navro'z asaldan keng dala-qirlar, tog'lар, bog'lar qo'yinda butun el-ulus bilan birqalikda nishonlangan. Aynan Navro'zda el-ulus birlikni, totuvlikni teranroq his qilgan.

Navro'z, bahoriy teng kunlik, ya'ni, 21 – 22-martdan boshlab nishonlangan va bir hafta, o'n kun, hatto, ba'zi joylarda bir oygacha davom etgan. Taassufki, tarixa Navro'zga munosabat har doim ham bir xil bo'lмаган. Masalan, Sosoniylar davrida Navro'zni yozgi tengkulikda nishonlash qabul qilingan bo'lsada, oddiy xalq uni bahorda kutib olaverGAN, ya'ni, bu kabu urinishlar besamar qolaverGAN. Biz juda yaxshi eslaymiz, Navro'zga eng og'riqli tazyiq sho'rolar davrida bo'ldi, ya'ni Sobiq ittifoqda Navro'zni bayram sifatida nishonlash taqiqlab qo'yildi. Bungacha esa grek-makedon va arab istilosini davrlarida ham Navro'z taqiqlangan, u podsho saroylarida, amaldorlar va din ahli davralarida rasmiy bayram hisoblanmagan.

Navro'z haqida Markaziy osiyolik buyuk allomalar – Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy, Umar Hayyom kabilar Navro'z haqida qimmatli fikrlar qoldirganlar. Alisher Navoiy bobomiz esa "Har tuning qadr" o'libon, Har kuning o'sun Navro'z", – deb bejizga bu kunni alohida yod etmaganlar. Abu Rayhon Beruniy ham o'zining "Qadim xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida bu bayramga katta o'rın ajratadi.

"Navro'z" asli fors tilidan kelib chiqqan bo'lib, "Yangi kun" ma'nosini anglatadi. Bu kun

shamsiy yilning boshi bo'lib, Ozar oyining o'n to'rtinchini kuniga, milodiy yilning esa yigirma birinchi martiga to'g'ri keladi.

2010-yilning 23-fevralida Afg'oniston, Ozarbayjon, Hindiston, Eron, Irog, Qozog'iston, Qirg'iziston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston va Turkiya tashhabbusi bilan BMT Bosh Assambleysi 21-martni "Xalqaro Navro'z kuni" deb e'lon qilgan, – deydi Yashnobod tumanidagi 153-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Muhammadiy Boymurodova. – BMTning maorif, fan va madaniyat tashkiloti – YUNESKO Navro'zni Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritgan. Bu bayram turli tillarda turlicha – Nawrouz, Novruz, Nowrouz, Nawrouz, Nauryz, Nooruz, Navruz deb nomlanadi. Bizgacha yetib kelgan qadimiy manbalarda esa Navro'z bayramining vujudga kelishi O'rta Osiyo, Eron va Afg'onistonda Ahamoniyalar davriga (miloddan avvalgi VI asrlar) borib taqaladi, deyilgan. Bundan kelib chiqadiki, Navro'z tarixi 2500–3000 yilga ega deb taxmin qilish mumkin. Eng qadimgi yozma manbalardan biri – zardo'shtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da (mil. av. IX asrdan VI asr boshlarini) ham Navro'z kuni tilga olinadi. Unga ko'ra, bahor kelishi yaxshilikning yovuzilish ustidagi g'alabasini anglatgan.

Ma'lumki, mavsumiy marosimlar dunyoning barcha xalqlari orasida eng ko'hna tasavvurlar bilan bog'liq holda paydo bo'ladi. Ular har bir xalq yashayotgan hududning shart-sharoiti, ob-havosi, turmush tarzi va boshqa bir qator faktorlar bilan bog'liq ravishda shakllanadi, rivojlanadi. Xalqning asl, azaliy bayramlari birinchi galda uning folklorida o'z aksini topadi. Yil fasrlarining almaslaniwi bilan bog'liq turli aytim, maqol, baxshi, doston, qo'shiq, matal, topishmoq, naql va afsonalar xalq og'zaki ijodida o'z aksini



topadi. Bayram marosimlarda aytiladigan qo'shiqlarda esa uning mazmun-mohiyati betakror metafora va o'xshatishlar orqali, timsoliy tarzda ifoda etilganini kuzatamiz. Davrlar o'tishi bilan ularning ba'zilari turli o'rinnlarda, turlicha ijob etilayotgan bo'lsadilar, bayram negizini yaxlit tasavvur etishga xalal bermaydi.

Ayni ko'klam paytidagi "Qozon to'ldi" kabi qadimiy marosimlar, qo'chqor, xo'roz urishtirish tomoshalari, polvonlar kurashi, baxshilar bellashuvi, sumalak, lola sayllari bo'lib o'tgan. Ushbu marosim va sayllar mohiyatini inson hayotini yanada yaxshilash, tabiat mushkulotlarini yengillashtirish, kelayotgan ko'klam va yangi yilni qutlab, uning qut-barakali bo'lishini Yaratgandan so'rash, turli o'zin, raqs, qo'shiqlar asosida kelayotgan yilning qanday bo'lishini chamlab ko'rishga

xizmat qilgan. Navro'z haqidagi afsonalarining birida ajodolarimiz temir qoyani eritib, yangi makonga chiqqanligi, shu kun yangi kun, yangi yilning boshlanishi deb atalgani aytiladi. Temir qoyanining eritilishi, temirchilik sirlarining kasfh etilishi, bu, albatta, o'z davri uchun katta bir inqilob, yangi bir tamaddunning boshlanishi edi. Bugun insoniyat texnika taraqqiyotida yuksak sivilizatsiyaga erishdi. Ana shu evrilishlarda, ana shu tamaddunda qachonlardir omoch haydab, tabiat, koinot haqida tafakkur qilgan ajodolarimizning ham ulkan hissasi borligini, bu o'lda hamisha ilm-u ma'rifikat, madaniyat va tafakkur beshigi bo'lib kelganligini unutmasligimiz lozim.

Nargiza HAMIDOVA,
partiyaning o'quv-uslubiy va tadqiqot markazi sektori mudiri

Bir nuqtamani.
Kichik bir nuqta –
Meni qaydan olgansan yig'ib.
Nahot, shunday katta holingda –
Yashayapsan ko'zimga sig'ib.
Balki meni qilmaysan pisand.
Oh chekmaryan yig'i-sig'imdan.
Bilki, qancha katta bo'lsang ham,
Kichkinas qorachig'imdan.

HAYOT

Oyog'ing ostida
Har kuni o'yin,
Har kuni o'zing bilan
Boshlanadi jang.
Endi ayt, men qanday Odam bo'layin –
Sen itlik qilsang...

Ne ma'no bor so'nggi yig'ida,
Ne qayg'ular baxsh etar davron.
Kel, ko'zimning ochiqligida –
Senga to'yib olayin osmon.
Qushlar shoshib boshimidan uchdi,
Ergashitirib olgancha tunni.
O'tgan umrim esimga tushdi –
Eslatmagin qolgan umrimmi...

Endi kuni bo'y iuraman o'ylab,
Og'rigan boshimga solasam g'ammni.
Qushcha, o'zimda yo'q narsani so'rab –
Juda xijolatga qo'yding odamni.
Joydirab qaraysan qafasdan otsam
Bir hovuch ushoq, don, suv va maysani...
Oldingga tashlayman nimaiki topsam –
Ozodlikdan boshqa hamma narsani...

TUSH

Ko'k baxtiyor.
Yer mulzam,
Qush uchishsha chog'langan.
Bir uchib ko'ray desam –
Oyoq-qo'lim bog'langan.
Yerni teppanim-teppan,
Bu ham hayot zarbasi.
Daraxtarga osilgan –
Qafasdagi qush kabi.
Bir kuni uyg'onaman,
Ko'zim ochilar birdan.
Hech narsa qolmasa ham,
Iz qoladi zanjirdan.

Bugun senga goldiramman xat,
Avval o'qi, so'ngra javob ayt:
Bu dunyoda sen borsan faqat,
Bu dunyoda Xudo bor faqat!

Aytalajak har-bir so'z qasam:
Har bitta so'z – ming bitta savol.
Bu dunyoda faqat sen borsan –
Bu dunyoda faqat Xudo bor!

MANZARA

Yulduzlar joyidan ketadi qalqib,
Baxtiyor tebranib tun yozar quloch.
Qator simyog'ochlar ichidan balqib,
Oqbadan oy chiqib kelar yalang'och.

Mafsumman. Zo'rba-zo'r nafas olaman,
Esimidan chigariq kechagi kurni.
Shu holda qayerga olib boraman,
Ko'ylagi so'tilgan kelinchak tunni...

Menimcha, aytilib bo'ldi hamma so'z,
Undan boshqa so'zlar menga qorong'i.
Men endi nimaga tiksam ekan ko'z –
Men nimani endi qilayin orzu?

Axir uyatmasmi, karamli Tangrim,
Har aytgan so'zimni qilsa mukarram.
Yaxshisi men endi tura qolay jum,
Bilmayman, men boshqa ne so'rashniyam.

DARAXTLAR

Ish bitirar imi-jimida,
Yurmas bizday hovliqib, chopib,
Sekin-asta tirikligida
Yer ostiga borar yo'l topib,
Nimalarni tukkan diliga,
Anoyimas biz kabi biroq.
Yetish uchun siring tagiga –
Yer ostiga kirar chuquroq.

Derazang kitobday ochilar ma'yus,
Dasturxon qoqqani chiqar
Bir juft yeng.
Sening ham uyingni topib keldi kuz
Ayni shu lahzada qayerdasan Sen?
Anuv kitobdag'i qo'llar kimniki –
Silkinib-silkinib qo'yar baxtiyor.
Ular chinqirmoqda: "Bilsang, meniki
Bahor, yoz, kuzak va yog'adigan qor".
Uzoglah ketaman.
Kuz.
Shamol.
Havo.
Kezamani notanish qumtepalarni.
Nahotki, shu qo'llar
O'qir bexato –
Men o'qiy olmagan sahilalarni.

Oy tuman ichida golganda yolg'iz
Nima qilarimni bilmasdan tursam,
Qayga ketishini aymay bir og'iz,
Shamollar yonidiman o'tadi xursand.
Ortidan bogaman boladay o'ksib,
Bog'larga ko'chadi mendagi titroq.
Qop-qora bulutlar yashirar ko'ksin,
Ammo tongga hali uzundan-uzoq.
Endi men osmonga borsamni yaqin,
O'ynasammi oyni barmoq uchida?!

Bugun jum turishga bormikan haqqim
Oy tuman ichida...
Men tun ichida...

Oramizdan o'tmas
Hatto qil,
Mudom qarab yashar ko'nglimga.
Bechora tish!
Yana qancha yil-
Chidab yasharkinsan tilimga.
Ko'p o'yayman-
Ochsang ko'zlarini,
Yo'l ko'ratsang...
Yo'iga boshlasang.
Tilimdag'i majruh so'zlarni-
Bo'lmaydimi chaynab tashlasang...
Oramizdan o'tmas
Hatto qil...

Shamol daraxtlarni soldi larzaga,
Tunga qorong'ilik kelganda malol.
O'zim muhabbatga tashna lahzada –
Sochim gullayotgan bo'lsa ehtimol ...

Ko'nglingiz atirgul misoli nefis,
Borliqa tuyg'ular qorday sochilmish.
Azizim, necha bor urindim, hargiz –
Netay, sochlarminda og gul ochilmish.
O'titz yil ... Sochimda o'titzfa fasl,
O'titz yil ... Sochimda qalashdi ranglar,
Sizni kuta-kuta, jonim, muttasil,
Oppoq go'zallikda gullamish g'amlar ...

Mening shamolligim yolg'on,
Ucholmasdan jonim halak.
Ko'zlarimdan to'kilsa jon –
O'zin yerga otar falak.

Mening tirikligim yolg'on,
Qabr o'zi olar joylab.
Tirik bo'lsam, atrofimda
Yurarmidi o'lim poylab?!

Hayot, hali hisyormi sho'rim,
Yetmay qolar ba'zida toqat.
Menga juda chiroyli ko'r'in –
Ketmoqlikka golmasin hojat.



*Nosiyat
Rustamova*

Balki xotirangda qolgan... qolmagan,
Balki Sen uchun ham armon o'sha on.
O'sha kun nigohlar gapirolmagan –
So'zlardan qocholmay yuribman hamon.
Har kuni erinmay tong otar oppoq,
Har kuni tap tortmay kelavera tun!

Har shox uyalmasdan yozganda yaproq –
Mening xayollarim tortadi mahzun.

Har lahma yodimga solar bahorni,
Har lahma yodimga tushar o'sha kuz.

Yillar kuraganda sochimdan qorni,
Sen mening dunyomda golasan yolg'iz!

Ko'zimda u kunlar qoldi tip-tiniq,
U kunlar bo'lganni? Bornidi? Bor... Chin!

She'rga aylanishga turibdi intiq –
Ko'zimdan to'kilgan har ulkan tomchi!

Balki... Xotirangda qolgan... Qolmagan...
Balki Sen uchun ham armon.

O'sha kun nigohlar gapirolmagan –
So'zlar bilan yashab yuribman hamon!

Yuragim ketmoqda
Orqaga tortib,

Qiyomat boshlangan og'ir tanamda.
O'zin istamagan ishlardan ortib

Yig'lagim kelmoqda
Kutilmaganda...

Yo'iga chiqmoqlikdan
Oyoq tortar bosh.

Baquvvat qo'llarim qilmas himoya,
Yuzini o'g'rib ko'zimdag'i yosh

O'igan kunlarimdan
Qilar hikoya.

Ertaga bormanmi,
Yo'qmi, noayon –

Nahotki, shu vujud chiqarar hukm.
Yuragim, Sen uchun,

O'zin uchun ham
Negadir yig'lagim kelmoqda bugun.

Eshik quflangan.
Tokchada kalit,

Ketyapman.
Azizim, yo'iga pul oldim.

Qo'rquam, yo'llarimni
Qo'riqlaydi it,

She'larim stolning ustida goldi.
Muzlatgich ovqatni turibdi saqlab,

Savatda Siz yaxshi ko'radiqan non.

Sanchqi, qoshiq, chashka bari yaraqlab –
Sizni kutib olar dasturxon.

Faqat ko'tarsangiz bo'ldi sochiqni,
Ovqatni isitib beradi tova.

Tayyorlab qo'ygaman – qo'ying qo'shiqni,
Shatunov deysizmi yo Pugachyova.

Jonim, kuy izmida oching shkafni,
Dazmollangan ko'ylik,

Keyin gaplashamiz qolgan gaplarni,
Hozir esa zarur ketishim...



— 3 yoshgacha bo'lgan bolalarga suyuqlik o'rniда choy berish mumkinmi?

Chinora Qo'ziyeva, Toshkent tumani

— Bolalar ovqatlari bo'yicha mutaxassislar bolaga choyni uch yosdan keyin berishni tavsya etishadi. Chunki, uning organizmi hali to'liq rivojlanmagan bo'lib, choy kichiktoq organizmi faoliyatini izdan chiqarib qo'yishi mumkin.

Gavhar Sulaymonova, pediatr

— Kech uxlash bola xotirasini susaytiradi, deb eshitdim. Shu go'rimi?

Shahnoza Xolova, Parkent tumani

Buyuk Britaniyalik olimlar ma'lumotiga ko'ra, onalar farzandlarini kech uxlatishi ularning fikrlashni hamda xotirasini tengqurlariga nisbatan yomonroq bo'lishiga olib kelar ekan. Olimlar fikricha, miyaning ma'lumot qabul qiluvchi qismi egiluvchan bo'la. Uyqu maromning buzilishi natijasida shu egiluvchanlik yo'qoladi va bola kerakli ma'lumotlarni qabul qila olmay qoladi. Bundan tashqari, uyquga kech yotuvchi bolalar ertak eshitishmaydi, aksincha, televizor ko'rish bilan mashg'ul bo'lishadi.

— "Coca cola" ning zarari haqida ko'p eshitganniz, uning foydali jihatlarini ham bormi?

Ruxsora Egamova, Bog'dod tumani

Shifokor va tadqiqotchilarining ta'kidlashicha, "Coca-Cola" ovqatni tez hazm qilishga yordam beradi va oshqozon fitobezi uchun eng yaxshi ichimlik deya tan olingan. Qolaversa, qorin og'rig'i ni yengillashtirishga ko'maklashadi. Cola tarkibidagi shakar ko'ngil aynishini to'xtatar ekan. Lekin shuni ham qayd etish joizki, "Coca-Cola" ba'zi bir oshqozon og'rig'i bilan kasallangan bemonlarga tavsya etilmaydi.

O'zingizni qiziqtingan savollarga javob topolmayapsizmi? Bizning quyidagi telegram manzilimizga yo'llang, bizning mutaxassislar savollaringizga javob berishadi.

99 443-05-86

— Mikroto'lqinli pechdan ko'p foydalanan xavfli deb eshitdim. Shu to'g'rimi?
Nodira Eshonova, Buxoro shahri

— Mikroto'lqinli pechda tayyorlangan taomlarni ko'p iste'mol qilish xotira va intellekt pasayishiga olib keladi. Bundan ham yomoni ayol va erkak gormonlari almashinuvini buzadi. Shu o'rinda radiatsiya oziqovqat molekulalarining buzilishi va deformatsiyasiga olib kelishini va su hamda don mahsulotlari tarkibidagi aminokislotalarning bir qismini kanserogenlarga aylantirishini ta'kidlash joiz. Shuningdek, mikroto'lqinli pechda mahsulot tarkibidagi minerallar, vitaminlar va ozuqaviy moddalar foydali xususiyatlarini yo'qotadi. Ro'zmat Egamberdiev, Umumiyy amaliyot shifokori

— Qora choy insulin o'rmini bosishi rostmi?
Biz, ko'pincha, ko'k choyni shifobaxsh deb iste'mol qilamiz.

Digitali Akbarov, Urgut tumani

Shotlandiyalik olimlar qora choy qandli diabetga chalilangem bemonlarga ijobji ta'sir qilishini isbotlashgan. Bunday choy tarkibidagi polifenol moddasi insulin o'rmini bosar ekan. Shifokor Endryu Keyssing atishicha, qora choyni montazam iste'mol qilish inson organizmida qandli diabet xastaligi rivojlanishiga qarshi immunitet hosil qiladi.

— O'zbekistonda o'tgan yili 20 yoshga to'imasdan ota bo'lganlar soni 1,5 mingdan oshgani rostmi?
Shohruh Niyozov, Bektemir tumani

Ha, chindan ham statistik ma'lumotlar, 2022 yilda qarib 1,5 ming nafar yigitning 20 yoshga to'imasdan farzandli bo'lganini ko'rsataydi. Shuningdek, bu ko'rsatkich 20 yoshgacha bo'lgan ayollarda 44 259 nafarni tashkil etmoqda.

BOSH KONSUL UNA RAHBARI BILAN UCHRASHDI

O'zbekiston Respublikasining Jidda shahridagi Bosh konsuli Nodirjon Turg'unov Islom hamkorlik tashkiloti axborot agentliklari ittifoqi - UNA bosh qarorgohida Bosh direktor vazifasini bajaruvchi Muhammad Abd Rabbo Al-Yamii bilan uchrashdi. Bu haqda UNA manbalarida ma'lum qilindi.

Muloqot chog'ida O'zbekiston Bosh konsuliga ittifoqning a'zo davlatlar uchun asosiy media-maydon sifatidagi roli, shuningdek, sohanri rivojlantirish istiqboli, kelgusi yillarga mo'ljalangan harakatlar rejsi

haqida ma'lumotlar berildi. Ayni yo'nalihsdag'i faoliyat shaffoflik, o'zaro ishonch tamoyiliga, bag'rikenglikka undaydig'an islonimi qadriyatlarla asoslangani ta'kidlandi.

Bosh konsul Ittifoqning mavjud aloqani, ommoviy axborot vositalari kodimlari o'rtasidagi kasbiy rishtani yanada

mustahkamlashdagi rolini yuqori baholab,

mamlakatimiz hamkorlikni kengaytirishdan

manfaatdor ekanini ma'lum qildi.